



# O‘ZBEKISTON – OZARBAYJON: STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINI YANADA CHUQURLASHTIRISH VA KO‘P QIRRALI HAMKORLIK MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

## Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-avgust kuni rafiqasi bilan birga davlat tashrifi bilan Boku shahriga keldi.



Haydar Aliyev nomidagi aeroportda davlatimiz rahbarini Ozarbayjon Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari Yaqub Ayubov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon — tili, an‘ana va urf-odatlari bir-biriga juda o‘xshash do‘st mamlakatlar. Bu do‘stlikning ildizlari esa uzoq tarixdan quvvat oladi.

“Avesto” kitobi ikki elning mustarak yodgorligi sanaladi. O‘zbek va ozarining bayrami — Navro‘zi bir. Xalq og‘zaki ijodining nodir durdonalari — “Go‘ro‘g‘li”, “Oshiq G‘arib”, “Dada Qo‘rqut” dostonlari esa azaliy qar-doshlikning ildizlari haqida yanada teran so‘zlaydi. Ularning san‘ati, musi-qasi hamohang. Shu jihatdan ham bu ikki xalq vakili so‘zlashganda tilmochgacha o‘rin qolmaydi.

Keyingi yillarda bu azaliy birodarlik, o‘zaro hamkorlik yangi bosqichga

ko‘tarildi. Ikki mamlakat Prezident-larining siyosiy irodasi, uzoqni ko‘zlab yuritayotgan siyosati, hech mubolag‘asiz, do‘stlik aloqalariga yangi ruh bag‘ishladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezi-denti Shavkat Mirziyoyev Boku shah-riga kelgach, Ozarbayjon xalqining umummilliy yetakchisi Haydar Aliyev mangu qo‘nim topgan Faxr xiyobo-niga tashrif buyurdi.

Haydar Aliyevning mustaqil Ozarbayjonni barpo etish va mustah-kamlash yo‘lidagi xizmatlari beqiyos. Mamlakatning jadal rivojlanish davri va xalqaro maydondagi nufuzining yuksalishi aynan uning ismi bilan bog‘liq.

Qardosh o‘zbek xalqi bilan do‘stona munosabatlarni mustahkamlashga doimo alohida e‘tibor qaratgan Hay-dar Aliyevni yurtimizda yaxshi bili-shadi. O‘zbekistonda uning yuz yillik

yubileyi keng nishonlandi. Shu muno-sabat bilan pochta markalari bosilgan, turli madaniy-ma‘rifiy va ilmiy tadbirlar o‘tkazilgan edi.

Toshkentda Ozarbayjon xalqi-ning umummilliy yetakchisi nomidagi ko‘cha, unga bag‘ishlangan xiyobon va yodgorlik ochilgan.

Shavkat Mirziyoyev buyuk davlat va siyosat arbobi Haydar Aliyev qabri-ga gul qo‘yib, xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari Boku shahridagi Shahidlar xiyoboniga bordi.

Ozarbayjon poytaxtining qoq markazida joylashgan ushbu yodgor-lik majmuasida mamlakat ozodligi va hududiy yaxlitligi yo‘lida qurbon bo‘lgan yurt qahramonlari dafn etilgan.

O‘zbekiston yetakchisi yodgorlikka gulchambar qo‘yib, Ozarbayjon vatan-parvarlari xotirasiga ehtirom ko‘rsatdi.

“Zug‘ulba” qarorgohida davlat tashrifi bilan Ozarbayjon Respublika-sida bo‘lib turgan O‘zbekiston Res-publikasi Prezidentini rasman kutib olishga bag‘ishlangan tantanali ma-rosim bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston yetakchisi Shavkat Mirziyoyev va rafiqasini Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev va rafiqasi sam-miym qarshi oldi.

Qarorgoh maydonida oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. Davlat rahbarlari faxriy qorovul safi oldidan o‘tdilar.

Harbiy orkestr ijrosida ikki davlat madhiyalari yangradi.

Rasmiy kutib olish marosimidan so‘ng Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyev tor doirada uchrashuv o‘tkazdi.

Davlatimiz rahbari Ozarbayjon Prezidentiga tashrif bilan kelish tak-lifi hamda O‘zbekiston delegatsi-yasiga ko‘rsatilayotgan samimi-y mehmondo‘stlik uchun minnatdorlik bildirdi.

Yetakchilar O‘zbekiston bilan Ozarbayjon o‘rtasidagi ko‘p qirrali strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish yuzasidan fikr almashdilar.

Parlamentlar, hukumatlar, hudud-lar, tashqi siyosiy va boshqa idoralar, ta’limiy doiralar o‘rtasidagi aloqalar faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Keyingi yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi barqaror sur‘atda oshib bormoqda. Qo‘shma korxonalar soni 4 barobar ko‘paydi.

Ozarbayjonda O‘zbekiston av-tomobillarini yig‘ish, ipakchilik va to‘qimachilik klasterlari tashkil etilgani samarali hamkorlikka misol bo‘la oladi.

Tashrif arafasida o‘tkazilgan biznes-forum natijasida yangi kooperatsiya loyihalari va savdo shartnomalarining salmoqli to‘plami shakllantirildi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon yetakchilari energetika, mashinasozlik, metallurgiya, shaharsozlik, qishloq xo‘jaligi, foydali qazilmalar, to‘qimachilik, ipakchilik, farmatsevtika, elektrotexnika va boshqa tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasini kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Qo‘shma loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va ilgari surish maqsadida O‘zbekiston — Ozarbayjon investitsi-ya kompaniyasining samarali faoli-yatini ta’minlash muhimligi qayd etildi.

Transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. O‘rta koridor orqali yuk tashishni ko‘paytirish, logistika va portlar infratuzilmasini birgalikda rivoj-lantirish zarurligi ta’kidlandi.

Prezidentlar hududlararo hamkor-likni rivojlantirish, yangi kooperatsiya loyihalarini birgalikda ishlab chiqish va ilgari surish uchun ikki mamlakat hududlari rahbarlarining muntazam uchrashuvlarini tashkil etish muhim-ligini qayd etdilar.

Tomonlar madaniy-gumanitar al-mashinuvlarni kengaytirish, ta’lim va fan sohasida qo‘shma dasturlarni amalga oshirishga tayyorligini bildirdi. Xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, kiberjinoiyatlarga qarshi kurashish borasida sa’y-harakatlarni birlashtirish muhimligi ta’kidlandi.

Shuningdek, davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy kun tartibi yuza-sidan fikr almashdilar, ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasida faol muloqotni va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni davom et-tirish masalalarini muhokama qildilar.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Prezi-denti Ilhom Aliyevning muzokaralari ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom etdi.

O‘zbekiston — Ozarbayjon strate-gik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va ko‘p qirrali ham-korlikni, eng avvalo, siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarida rivoj-lantirish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari dini bir, qad-riyatlari, an‘analari, tili va madani-yati o‘xshash bo‘lgan xalqlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar keyingi yillar-da eng yuksak darajaga ko‘tarilganini qayd etdi.

O‘zbekiston rahbari Ozarbayjon xalqini atoliq davlat arbobi, umummil-liy yetakchi Haydar Aliyevning 100 yil-luk yubileyi bilan tabrikлади.

Prezidentlar kuni kecha ikki mam-lakat yetakchi kompaniyalari ishtiroki-da o‘tgan biznes-forum yakunlarini yuqori baholadilar.

Savdo va sanoat kooperatsiyasida jadal o‘shish kuzatilayotgani mam-nuniyat bilan qayd etildi. Yaqin yil-larda uchinchi mamlakatlardan qim-mat importning o‘mini milliy ishlab chiqaruvchilarning arzon va sifatli mahsulotlari bilan bosish orqali tovar ayirboshlashni 1 milliard dollarga yetkazish uchun barcha imkoniyatlar mavjudligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Sanoat kooperatsiyasi xususida so‘z borar ekan, Prezidentlar ener-getika, metallurgiya, foydali qazilma-lar, mashinasozlik, elektrotexnika, to‘qimachilik, farmatsevtika, agro-sanoat va boshqa tarmoqlarda muhim loyihalarni birgalikda amalga oshirish bo‘yicha qat’iy kelishuvlarga erishilganini olqishladilar. Bunday loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shma Investitsiya jamg‘armasining mablag‘larini faol o‘zlashtirish muhim-ligi ta’kidlandi.

Hududlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, xususan, ularning sanoat salohiyatini hisobga olgan holda yangi kooperatsiya loyihalarini ilgari surish uchun hududiy ma’muriyatlari rahbar-larining to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotini va muntazam uchrashuvlarini yo‘lga qo‘yish g‘oyasi qo‘llab-quvvatlandi.

Yetakchilar transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish strategik jihatdan muhimligini qayd etdilar.

O‘tgan yilda O‘zbekiston yuklarini Boku porti orqali tashish hajmi qa-riyb ikki barobar oshdi. Mamlakatimiz bundan buyon ham Ozarbayjonning zamonaviy transport tarmog‘idan foy-dalanib, yuk tashishni ko‘paytirish ni-yatida.

Shu ma’noda, Transkaspiy yo‘lagi doirasida qo‘shma logistika kompani-yasini tashkil etish hamda Boku shahri va uchinchi mamlakatlar portlarida omborxona infratuzilmasi va logis-tika markazlarini barpo etish choralari muhokama qilindi.

[Davomi 2-betda](#)

## TARAQQIYOT YO‘LI KICHIKIDAN O‘RTAGA, O‘RTADAN KATTAGA

### OCHIQ MULOQOT CHOG‘IDA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA BELGILANGAN YO‘NALISHLAR

Joriy yil 18-avgust kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan uchinchi ochiq muloqoti bo‘lib o‘tdi. Davlat boshqaruvining turli darajalarida amalga oshirilayotgan biznes bilan muloqot dunyo bo‘yicha keng tarqalgan bo‘lib, iqtisodiy siyosati va biznes manfaatlarini davlat rivoji manfaatlarini bilan uyg‘unlashtirgan holda optimal tarzda olib borishga yordam beradi.

**Muloqot rivoji**

Ilk ochiq muloqot davlatimiz rahbarining taklifiga bi-noan 2021-yil 20-avgustda tashkil etilgan edi. Shun-dan buyon mazkur format yaxshi an‘anaga aylandi va ushbu sana mamlakatimizda Tadbirkorlar kuni etib bel-gilandi. Bu O‘zbekistonda shu kabi birinchi tajriba bo‘lib, biznesga nisbatan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatni



optimallashtirish nuqtayi nazaridan o‘zining yuqori sa-maradorligini ko‘rsatishga ulgurdi, keyingi yillarda tad-birkorlikni rivojlantirish sohasidagi natijalar ham shuni ko‘rsatmoqda.

[Davomi 3-betda](#)

## BIZ VA DUNYO

### IKKI QARDOSH MAMLAKATNING DO‘STLIK ILDIZLARI UZOQ TARIXDAN QUVVAT OLADI

#### Ozarbayjon ommaviy axborot vositalari Bokuda boshlangan oliy darajadagi O‘zbekiston — Ozarbayjon sammiti haqida

Ozarbayjon ommaviy axborot vositalari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifini keng yoritmoqda.

[Davomi 2-betda](#)

## INNOVATSIYA

### HECH BIR O‘ZGARISH BEIZ KETMAYDI

O‘zbekiston 2030-yilga qadar innovatsion rivojlangan 50 mam-lakat qatoriga kirishni maqsad qilgan. Bugun ushbu yo‘nalishdagi ishlar, ta’limda, ilmda, ishlab chiqarishda, umuman, barcha soha va yo‘nalishlarda ilg‘or g‘oyalarga e‘tibor qaratilayotgani ana shu maqsadga erishish yo‘lidagi sa’y-harakatlardir. Binobarin, bunda

eng to‘g‘ri yo‘l va oqilona yechim taraqqiyotning muhim mezon — ilmi, innovatsiyani har tomonlama rag‘batlantirib, ijtimoiy hayotda inson kapitali yuksak qadr topishi uchun barcha imkoniyatlarni ish-ga solishdir.

[Davomi 4-betda](#)

# O‘ZBEKISTON – OZARBAYJON: STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINI YANADA CHUQUURLASHTIRISH VA KO‘P QIRRALI HAMKORLIK MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Boshlanishi 1-betda

Madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan bir qator kelishuvlarga erishildi, shu jumladan, Madaniyat va kino kunlari, ijodiy va ilmiy ziyolilar, yoshlar tashkilotlarining uchrashuvlarini o‘tkazishga kelishib olindi.

Yig‘ilish davomida tashqi siyosiy idoralar rahbarlari, Hukumatlararo komissiya hamraisarlari, transport va energetika, qishloq xo‘jaligi va madaniyat vazirlarining muzokaralar kun tartibi yuzasidan hisobotlari tinglandi.

Yakunda davlat rahbarlari qo‘shma “yo‘l xarita”larini tayyorlash va erishilgan kelishuvlarni samarali amalga oshirish mexanizmlarini ta‘sis etishga topshiriq berdilar.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunlangach, ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo‘ldi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyev O‘zbekiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi o‘rtasida Oliy davlatlararo kengash tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar.

Bundan tashqari, tashrif doirasida davlatlar, hukumatlar va idoralar darajasida 15 ta hujjat qabul qilindi.

2023-2024-yillarda har tomonlama strategik sheriklikni chuqurlashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”, energetika sohasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish to‘g‘risida, yoshlarga oid siyosat va sport sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar, Media sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” shular jumlasidan.

Bundan tashqari, Fuqarolarning vizasiz qatnovlari to‘g‘risidagi bitimga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi, “E-permit” ruxsatnomala blanklarini elektron almashish axborot tizimini joriy qilish, oila va bolalarni muhofaza qilish, oziq-ovqat xavfsizligi borasida hamkorlik qilish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi hamda Xavfsizlik kengashlari kotibiyatlari o‘rtasidagi, kiberxavfsizlik sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida memorandumlar imzolandi.

Ushbu hujjatlar O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi munosabatlarning bir qator istiqbolli yo‘nalishlarida amaliy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdilar.

Davlatimiz rahbari har doimgidek samimiy mehmondo‘stlik uchun Ozarbayjon yetakchisiga minnatdorlik bildirdi.

— Saylovdan keyingi birinchi tashrifimni aynan Ozarbayjonga amalga oshirayotganim ramziy ma’noga ega. Bu ikki tomonlama hamkorligimiz eng yuksak darajaga chiqqani, yaqinlashishga o‘zaro intilish borligi, sheriklik uchun keng imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi, — dedi O‘zbekiston Prezidenti.

O‘zbekiston Ozarbayjonning hududiy yaxlitligini doim qo‘llab-quvvatlab kelgani va bundan buyon ham qo‘llab-quvvatlashi ta’kidlandi. Shu munosabat bilan mamlakatimiz yetakchisi Qorabog‘da tinchlik va barqarorlik o‘rnatilishi alohida ahamiyatga ega ekanini qayd etib, bu yerda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarining ko‘lami va sur‘atini yuqori baholadi.

Muzokaralar natijalari katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Ularda ko‘p qirrali hamkorlikning barcha masalalari muhokama qilindi.

— O‘zbekiston bilan Ozarbayjon o‘rtasida hech qanday muammoli masalalar yo‘qligini ta’kidlash joiz. Biz qardosh xalqlarimiz manfaatlari yo‘lida katta salohiyatdan samarali foydalanishning yangi imkoniyatlari va mexanizmlarini izlash dolzarb ekaniga urg‘u berdik, — dedi davlatimiz rahbari.

O‘zbekiston va Ozarbayjonning Oliy davlatlararo kengashini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomaning imzolangani ikki tomonlama munosabatlarda yangi bosqichni boshlab berishi ta’kidlandi.

Oliy darajadagi uchrashuvlar chog‘ida ko‘p qirrali sheriklikning asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi.

Davlat rahbarlari savdoni ko‘paytirish, sanoat kooperatsiyasi va logistika infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e’tibor berdilar. Avtomobilsozlik, metallurgiya,

energetika, qishloq xo‘jaligi, elektrotexnika, to‘qimachilik, turizm va boshqa tarmoqlardagi yirik loyihalar muhokama qilindi.

Shuningdek, yangi logistika zanjirlarini rivojlantirish va infratuzilmani barpo etish, yuk tashish hajmini ko‘paytirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikning yana bir drayveri sifatida ikki mamlakat hududlarining imkoniyatlari maksimal darajada ishga solinadi. Hokimlar, ma’muriyatlar rahbarlari yangi kooperatsiya loyihalari va gumanitar almashinuvni ilgari surish uchun joylarda muntazam uchrashadilar.

Muzokaralarda madaniyat sohasidagi aloqalarga alohida e’tibor qaratildi.

Yaqinda Ozarbayjonda O‘zbekiston madaniyati kunlari katta muvaffaqiyat bilan o‘tdi. Ushbu tadbirlar doirasida Bokuda o‘zbek mumtoz adabiyotining buyuk vakili Abdulla Qodiriyning ozarbayjon tiliga tarjima qilingan “O‘tkan kunlar” romani taqdimot qilindi.

Madaniyat va kino kunlari, ijod va ilm-fan arboblari uchrasuvlari muntazam o‘tkazib boriladigan bo‘ldi. Joriy yilda O‘zbekistonda birinchi O‘zbekiston — Ozarbayjon yoshlar forumi tashkil etiladi.

Yetakchilar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, MDH, YXHT, Qo‘shilmaslik harakati va boshqa ko‘p tomonlama institutlar doirasida ham samarali muloqotni davom ettirishga ahdlashib oldilar.

— Bugungi muzokaralar strategik sheriklik munosabatlarni mustahkamlashga intilishimiz qat’iy ekanini yana bir bor namoyish etdi. Sa’y-harakatlarimiz aniq natijalarga qaratilgan, — dedi O‘zbekiston Prezidenti so‘zining yakunida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi davom etmoqda.

O‘ZA

## MUSHTARAK MAQSADLAR

# O‘ZBEKISTON VA VENGRIYA KONSTITUTSIYALARI

## ULARDAGI O‘ZARO O‘XSHASH JIHATLAR NIMALARDA NAMOYON BO‘LADI?

**Jahongir SHIRINOV, Oliy Majlisning Vengriya Milliy Assambleyasi bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruhi rahbari**

Boshlanishi 1-betda

Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan joriy yil 19-20-avgust kunlari Prezident Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Budapest shahrida bo‘ldi. Bu tashrif so‘nggi yillarda tobora rivojlanayotgan hamkorlik aloqalarida yangi davrni boshlab berdi. Tashrif doirasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama etildi.

Vengriya Yevropaning iqtisodiy jihatdan tez o‘sib borayotgan mamlakatlardan biri, qishloq xo‘jaligi, savdo, turizm, moliya va axborot texnologiyalari sohasida ulkan salohiyatga ega davlat. Albatta, bunday natijalarga erishish uchun mamlakat ijtimoiy hayotining turli jabhalarida tizimli islohotlar qilindi.

O‘zbekistondagi kabi yirik konstitutsiyaviy islohotlar Vengriyada ham bo‘lib o‘tgan. Mamlakatning yangi Konstitutsiyasi 2011-yilda qabul qilingan va 2012-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. Har ikki mamlakatning yangilangan Konstitutsiyasida boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlar tinchliksevar tashqi siyosat va do‘stona munosabatlarga asoslanishi nazarda tutilgan.

O‘zbekiston va Vengriya Bosh qonunlarining o‘xshash jihatlari juda ko‘p. Masalan, oilaviy qadriyatlar, farzand tarbiyasi, ota-onaga hurmat kabi milliy qadriyatlarimizga mos keladigan normalarni har ikki mamlakat Bosh qonunida uchratish mumkin. Jumladan, Vengriya Konstitutsiyasida davlat nikohni himoya qilishi, oila qonun bilan himoyalaniishi qayd etilgan. Shuningdek, ota-onalar



farzandlariga, voyaga yetgan farzandlar esa ko‘makka muhtoj ota-onalariga g‘amxo‘rlik qilishi belgilangan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham oila jamiyat va davlat muhofazasida ekanini, davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishi, shuningdek, ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning har tomonlama kamol topishi xususida qayg‘urishi, o‘z navbatida, voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar ham o‘z ota-onasiga g‘amxo‘rlik qilishga majburligi belgilangan.

Inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash borasida ham har ikki mamlakat Konstitutsiyasida o‘zaro o‘xshash normalar ko‘p. Masalan, Vengriya Konstitutsiyasida jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlangan shaxs qisqa muddat ichida sudga olib borilishi yoki ozod etilishi lozimligi ko‘rsatilgan. Bizning Konstitutsiyada ham hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yilishi, shaxs sudning qarorisiz qirg‘ sakki soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi mustahkamlangan.

Mamlakatlarimiz Konstitutsiyalarida bunday qoidalar bo‘lishi “Xabeas korpus”

institutini rivojlantiradi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni noqonuniy harakatlardan tiyib turishga, shaxsning asossiz hibsga olinishi holatlarini bartaraf etishga, shu orqali inson ozodligini cheklash bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bilim insonni komillikka ko‘tarishi bilan birga u yashayotgan jamiyat va mamlakatni ham yuksaltiradi. Shu bois, har ikki mamlakat Konstitutsiyasida davlat fuqarolarning ta‘limga oid huquqlarini amalga oshirishni o‘z zimmasiga olishi mustahkamlangan. Masalan, Vengriya Konstitutsiyasida har bir vengriyalik ta‘lim olish huquqiga egaligi, davlat umumi ta‘limi ta‘limni ta‘minlashi, boshlang‘ich va o‘rta ta‘limga erkin kirish imkoniyati, fuqarolarning oliy ta‘lim olishiga sharoit yaratishi nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham har kim ta‘lim olish huquqiga ega ekanini, davlat bepul umumiy o‘rta ta‘lim va boshlang‘ich professional ta‘lim olishni kafolatlashi qayd etilgan. Bundan tashqari, Konstitutsiyamizda fuqarolar davlat ta‘lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma‘lumot olishga haqli ekanini mustahkamlangan.

O‘zbekiston va Vengriya Konstitutsiyalarida milliy iqtisodiyotda haqiqiy bozor munosabatlarini joriy etish, shu asosda mamlakatni taraqqiy ettirish uchun tadbirkorlarga barcha sharoitlarni yaratish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishini kafolatlaydigan normalar kiritilgan.

Misol uchun, Vengriya Konstitutsiyasida Vengriya iqtisodiyoti tadbirkorlik erkinligiga asoslanishi, mamlakat do‘latli raqobat uchun sharoit yaratishi, iste’molchilar huquqini himoya qilishi ko‘rsatilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston iqtisodiyoti negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi, davlat bozor munosabatlarini rivojlantirishi va halol raqobat uchun shart-sharoit

yaratishi, iste’molchilar huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlashi belgilangan.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda valyuta bozori erkinlashtirildi, davlat aktivlari va banklarni, sanoat va infratuzilma obyektlarini xususiylashtirish dasturi boshlandi, soliq tizimi isloh qilindi. Mana shunday islohotlar mamlakatlarimiz o‘rtasida iqtisodiy hamkorlikni ham yanada rag‘batlantirmoqda.

Albatta, konstitutsiyalarimizning o‘xshash jihatlari yana ko‘p sanab o‘tish mumkin. Shu bilan birga, Vengriya Konstitutsiyasida e’tiborga molik o‘ziga xos normalar ham mavjud. Masalan, unda hukumat a’zolari lavozimga kirishishdan oldin xalq vakillari oldida qasamyod qabul qilishi nazarda tutilgan. Parlament qonun yuzasidan yakuniy ovoz berishdan oldin uning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash uchun mamlakat Konstitutsiyaviy sudiga yuborishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Bu esa qonunni qabul qilib ijroga qaratgandan so‘ng emas, balki ertaroq, ya’ni qonunni imzolashdan va e’lon qilishdan oldinroq uning Konstitutsiyaga mosligini yana bir bor aniqlash imkonini beradi. Qolaversa, Konstitutsiyaviy sudning “norma nazorati” borasidagi rolini ham oshiradi.

Bizning Konstitutsiyamizdagi ayrim demokratik normalarni har qanday xorijiy mamlakatlar uchun namuna sifatida ko‘rsatish mumkin. Masalan, Vengriya Konstitutsiyasida qonunchilik tashabbusi Prezidentga, hukumatga, parlament komissiyalariga va parlament a’zolariga taalluqli. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda esa nafaqat davlat organlari, balki saylov huquqiga ega yuz mingdan kam bo‘lmagan oddiy fuqarolar tomonidan ham qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida parlamentga kiritish huquqi berilgan. Bunday institutning joriy qilinishi xalq qonun ijodkorligida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etishiga sharoit yaratadi.

Konstitutsiyaviy islohotlar borasida tajriba almashishda parlamentlararo hamkorlikning o‘rni beqiyos. Bunda har ikki mamlakatning parlamentlarida tashkil etilgan do‘stlik guruhlari tomonidan o‘zaro tajriba almashish asosida parlament va qonun ijodkorligi amaliyoti ta’komillashtirib boriladi.

## BIZ VA DUNYO

# IKKI QARDOSH MAMLAKATNING DO‘STLIK ILDIZLARI UZOQ TARIXDAN QUVVAT OLADI

## Ozarbayjon ommaviy axborot vositalari Bokuda boshlangan oliy darajadagi O‘zbekiston — Ozarbayjon sammiti haqida

Boshlanishi 1-betda

Xususan, “AZERTADJ” Ozarbayjon davlat axborot agentligi, “Trend.az” xalqaro axborot agentligi, “turkustan.az”, “ru.oxu.az”, “report.az”, “hakkin.az”, “caliber.az” singari nufuzli axborot-tahliliy portallar va elektron hamda bosma OAVda O‘zbekiston rahbarining davlat tashrifiga bag‘ishlangan turkum maqolalar e’lon qilinyapti.

Shu bilan birga, tashrif arafasida O‘zbekiston — Ozarbayjon munosabatlari o‘id batafsil tahliliy maqola va sharhlar chop etildi.

“Report.az” portalida berilgan sharhda Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O‘zbekiston bilan munosabatlarni rivojlantirish Ozarbayjon tashqi siyosatida muhim o‘rin tutayotgani va bu hamkorlik keyingi yillarda jadal kengayib borayotgani ta’kidlangan.

“Mamlakatlarimiz o‘rtasida 1995-yil 2-oktabrda diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan bo‘lsa-da, tarixi, dini va madaniyati, ildizlari mushtarak bo‘lgan ozar va o‘zbek xalqlari o‘rtasida qadimdan an’anaviy do‘stlik va qardoshlik rishtalari mavjud. O‘zbek xalqining zabardast mutafakkiri Alisher Navoiy o‘zining turkiy tildagi “Xamsa”sini buyuk Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sidan ilhomlanib yozgani bejiz emas”, deyiladi maqolada.

Mazkur materialda Ozarbayjon va O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, tarixiy do‘stlik va qardoshlik munosabatlari yanada rivojlanib, ko‘p yillik sinovlardan so‘ng bugungi darajaga ko‘tarilgani qayd etilgan.

“2021-yil 31-mart kuni Turkiy davlatlar tashkilotining videokonferensiya formatida bo‘lib o‘tgan norasmiy sammitida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjonni Qorabog‘ning qaytarilishi va tarixiy adolat tiklangani bilan tabrikadi. O‘sha yilning noyabr oyida Istanbulda bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkilotining VIII sammitida Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston mablag‘i

atlaslari ozarbayjonlik kelinlar uchun eng chiroyli libos, shuningdek, kundalik hayotning bezagiga aylandi. Ozarbayjon xalqining milliy qo‘shiqlari o‘zbek to‘ylarida sevib ijro etilmoqda. Madaniy merosimizni himoya qilish orqali biz do‘stligimizni tajovuzlardan himoya qildik”, deb yozadi maqola muallifi Aida Eyvazli Geytyurk.

Muallif, shuningdek, O‘zbekiston o‘zining qadimiy binolari, bizgacha yetib kelgan me’moriy obidatlari bilan turkiy dunyo madaniyatining beshigi bo‘lganini ta’kidlagan.

“2022-yil 11-noyabr kuni jahon sivilizatsiyasi markazi, Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan Samarqand shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining IX sammiti bo‘lib o‘tdi, — deyiladi maqolada. — Hatto 3500-yildan ortiq tarixga ega qadim Samarqandning “Turkiy sivilizatsiya poytaxti” deb atalishi ham tarixning kinoyasi emas, balki zarurat va qo‘ldan bo‘y berilgan imkoniyatlarning o‘rnini bosishdir. Chunki Samarqand azaldan taraqqiyot, madaniyat, ilm-fan, ma’rifat, do‘stlik markazi bo‘lib kelgan. Hozir esa ushbu qadimiy kentda — Temuriylar, Shayboniylar, Naqshbandiylar ruhi singan zaminda turkiy dunyoning ko‘plab masalalari muhokama qilinmoqda, yangi dunyo tuzumida yangi qarorlar qabul qilinishi tarixni ortga qaytarmoqda”.

Muallifning qayd etishicha, xalqaro tashkilotlar soni, investitsiyalar hajmi, aholi sonining o‘sish sur‘ati bo‘yicha O‘zbekiston hozirda yetakchi o‘rinni egallab turibdi. U shuningdek, O‘zbekiston mintaqada muvozanatni o‘rnatib, an’analarni saqlab kelayotgani ta’kidlagan.

“Shu ma’noda, O‘zbekiston yetakchisi Shavkat Mirziyoyevni islohotchi deysih o‘rinli, — deydi Aida Eyvazli Geytyurk. — Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat taraqqiyoti sur‘atlarini jadal oshirmoqda. Binobarin, u turk dunyosi

“Mushtarak ildiz va uzoq tarixga asoslangan Ozarbayjon — O‘zbekiston munosabatlari bugun yangi davr voqeligiga mos ravishda jadal rivojlanmoqda. Davlatlarimiz o‘rtasida bugunga qadar imzolangan 160 dan ortiq hujjat, jumladan, Strategik sheriklikni chuqurlashtirish va har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish deklaratsiyasi mustahkam huquqiy asos yaratdi.

hisobidan Fuzuliya maktab qurilishini aytgan edi. Ushbu yo‘nalishdagi ishlar allaqachon yakunlangan”, deya keltiriladi “report.az”da.

Bundan tashqari, sharhda Prezidentlar Ilhom Aliyev va Shavkat Mirziyoyev o‘rtasidagi ishonchli va yaqin do‘stona munosabatlar Ozarbayjon — O‘zbekiston aloqalarini yuksak darajaga ko‘tarishda hal qiluvchi rol o‘ynashi alohida urg‘ulangan. Ikki Prezident ham davlat va rasmiy tashriflardan tashqari, turli xalqaro tadbirlar doirasida tez-tez uchrashib turishlari bejiz emas.

“Mushtarak ildiz va uzoq tarixga asoslangan Ozarbayjon — O‘zbekiston munosabatlari bugun yangi davr voqeligiga mos ravishda jadal rivojlanmoqda. Davlatlarimiz o‘rtasida bugunga qadar imzolangan 160 dan ortiq hujjat, jumladan, Strategik sheriklikni chuqurlashtirish va har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish deklaratsiyasi mustahkam huquqiy asos yaratdi. Ozarbayjon va O‘zbekiston, shuningdek, Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari o‘rtasidagi kundan kun mustahkamlanib borayotgan aloqalar davlatlarimiz va xalqlarimiz, butun turkiy dunyo taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shmoqda”, deya yakunlanadi maqola. Ozarbayjonning ommabop “turkustan.az” portali ham O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorligi va mamlakatimiz rahbarining turkiy dunyoni mustahkamlashga qo‘shgan shaxsiy hisssasi haqidagi maqolani o‘z mustahriylari e’tiboriga havola etdi.

“Birdamligimizni, merosimizni buyuk faylasuflar, me’morlar, rassomlar, shoirlar asrab-avaylashdi. O‘zbek ipaklari,

integratsiyasi yo‘lida ilk qadamni tashlagan Prezident, u o‘z nomini tarixga yozgan yetakchi, desak adashmaymiz. Shavkat Mirziyoyev an’analar asosida yashaydigan davlat rahbari. U Sohobqiron Amir Temur asos solgan davlatga, o‘zbek xalqiga g‘oyat munosib xizmat qilmoqda. U Amir Temur yo‘li va siyosatini sharaf bilan davom ettirib, turkiy dunyoning birlashuviga, turkiy davlatlar tashkilotining diversifikatsiyasi xizmat ko‘rayti”.

“Rahbarlarning uzoqni qo‘ra bilishi uzoq maqsadlarga erishishga yordam beradi. Yetakchilarning umumiy maqsadlarni tanlashi esa xalqlar va davlatlarning parallel rivojlanishining kalitidir. Bu sodir bo‘lganda xalqaro tashkilotlarga integratsiyalashuv jarayoni soddalashadi. Bugungi kunda O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasida davom etayotgan parallellik turkiy davlatlarning tashkil etilishida ham muvozanatni saqlashga xizmat qilmoqda. Turkiy davlatlarning qadriyatlari va ma’naviy aloqalarini asrab-avaylash va rivojlantirishda Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyevning xizmatlari juda katta”, deb yozadi muallif.

Ushbu davlat ommaviy axborot vositalari, shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 22-avgust kuni Bokuga kelishi, mamlakatimiz delegatsiyasining Ozarbayjon xalqining umummilliy yetakchisi Haydar Aliyev mangu qo‘nim topgan joy hamda Shahidlar xiyoboniga tashrifi, oliy darajadagi muzokaralar boshlangani haqidagi yangiliklarni tez-korlik bilan yoritdi.

“Dunyo” AA  
Boku

## TARAQQIYOT YO'LI

## KICHIKIDAN O'RTAGA, O'RTADAN KATTAGA

OCHIQ MULOQOT CHOG'IDA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH  
BO'YICHA BELGILANGAN YO'NALISHLAR

**Obid HAKIMOV,**  
**O'zbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti Administratsiyasi**  
**huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar**  
**va islohotlar markazi direktori**

Boshlanishi 1-betda

Birinci muloqot chog'ida biznes faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni hal etishga qaratilgan kelgusi ishlar bo'yicha 7 ta eng muhim yo'nalish belgilab berilgan edi.

Xususan, birinchi yo'nalish moliyalashtirish masalalari, ikkinchisi — soliq tizimini takomillashtirish va biznesga soliq yukini kamaytirish, uchinchi — yer berish tartibini takomillashtirish, to'rtinchisi — zarur infratuzilmani rivojlantirish, beshinchisi — eksportchilarni qo'llab-quvvatlashga tegishli bo'lib, oltinchisi — transport-logistika sohasi bilan bog'liq, yettinchisi esa biznes yuritish tartib-taomillarini soddalashtirishga qaratiladi.

Tadbirkorlar bilan ikkinchi muloqot 2022-yil 22-avgust kuni bo'lib o'tdi. Ushbu muloqot chog'ida tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashning beshta asosiy yo'nalishi belgilab berildi.


Birinchi yo'nalish — korxonalarni mikro biznes, kichik biznes, o'rta biznes kabi toifalarga ajratish orqali ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha alohida yondashuvlarni joriy etish. Ikkinchi yo'nalish — yanada qulay moliyalashtirish tizimini yaratish. Uchinchi yo'nalish — tuman va shaharlar sharoitidan kelib chiqib, biznesni qo'llab-quvvatlash uchun alohida yondashuvlar joriy etish. To'rtinchi yo'nalish — tadbirkorlarning mulk huquqini himoya qilish. Beshinchi yo'nalish — tadbirkorlar faoliyatini nazorat qilish va ularni javobgarlikka tortish.

#### Bir yil davomida bajarilgan ishlar

Yaqinda o'tkazilgan muloqotda o'tgan yilgi muloqotda belgilangan yo'nalishlar bo'yicha bir yil davomida amalga oshirilgan ishlarga baho berildi. Xususan, o'tgan yil ilgari surilgan takliflar asosida biznes subyektlari mikro, kichik, o'rta va yirik toifalarga ajratilib, ularning har biriga alohida yondashuv qo'llanila boshladi. Xuddi shunday, tuman va shaharlar ham 5 toifaga bo'linib, 60 tumanda alohida soliq, kredit va moliyaviy rejimlar joriy etildi, buning natijasida o'tgan olti oyda ushbu tumanlardagi tadbirkorlar qariyb 1 trillion so'mlik imtiyozlardan foydalandi. Buning hisobiga 20 tumanda tadbirkorlar daromadlari o'tgan yilga nisbatan 1,5-2 barobargacha oshdi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish muddati qisqartirildi. Buning natijasida 2022-yil 1-avgustdan 2023-yil 1-avgustga qadar 6 ming korxonaga 20 trillion so'm qaytarib berildi, 2 mingdan ziyod eksportchi tadbirkorning hisobraqamiga eksportdan valyuta tushumini kutmasdan 7 trillion so'm kelib tushdi. Ushbu soliq stavkasini 12 foizgacha kamaytirish hisobidan qo'shilgan qiymat zanjiri ishtirokchilari soni 26 mingga ko'payib, ularning faoliyati "soya"dan chiqdi. QQS to'lovchilari soni 184 mingga yetdi. Samarasiz soliq mexanizmlari qo'llanilishi oqibatida vujudga kelgan soliq qarzdorligini hisobdan chiqarish natijasida biznes ixtiyorida 2 trillion so'm qoldi.

Kreditlash sohasida aylanmadagi tovarlar, eksport shartnomalari, akkreditivlar va kelgusi tushumlardan ham garov ta'minoti sifatida foydalanish tizimi yaratildi. Ushbu imkoniyat tufayli tadbirkorlarga 1 milliard dollar miqdorida kredit taqdim etildi. Mikro-moliya tashkilotlarini ochish tartibi yengillashtirilgan tufayli mamlakatimizda banklar uchun muqobil kredit bozori paydo bo'ldi. So'nggi bir yil davomida bunday tashkilotlar soni 1,5 barobar, ular tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi esa 3 barobar oshdi. Yil



Ayni paytda sanoat ipotekasi tizimi ham yo'lga qo'yilib, tadbirkorlarga "tayyor biznes" shaklida ishlab chiqarish maydonlari qurib beriladi. Jumladan, har bir viloyatda kamida 3 tadan yangi sanoat zonasini tashkil etilib, ularda investitsiya majburiyatlari bajarilgandan so'ng yer maydonlarini xususiy lashtirishga ruxsat beriladi.

davomida nobank tashkilotlar tomonidan 3 trillion so'm kredit mablag'larini ajratildi.

Bojxona hududida qayta ishlash tizimi soddalashtirilgani tufayli, ushbu bojxona rejimidan foydalanuvchi tadbirkorlar soni ikki barobar ortdi, buning natijasida yil davomida ushbu imkoniyatdan foydalangan holda 455 million dollarlik mahsulot eksport qilinib, 110 million dollarlik qo'shilgan qiymat yaratildi.

Ilgari yangi tadbirkorlar uchun "kirish qiyin bo'lgan" 119 faoliyat turi uchun litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi yoki xabardor qilish shakliga o'tkazildi. Shu bilan birga, respublika hududida birgina yu-



larni avtomobilda tashish faoliyati bo'yicha litsenziyalarni bekor qilish hisobidan yuk tashish hajmi 1,5 barobar oshdi. 2023-yilning olti oyi davomida tekshiruvlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 40 foizga — 104 mingdan 64 mingtaga kamaygan.

Tadbirkorlar bilan avvalgi muloqotdan so'ng, o'tgan bir yil davomida kichik tadbirkorlar soni yana 40 mingga ko'payib, 490 mingni tashkil etdi. O'rta tadbirkorlar soni esa 2 mingga oshdi va 10 mingga yetdi. Yirik korxonalar soni yil davomida 400 taga ortib, 1,5 mingtani tashkil etmoqda.

Taqdim etilayotgan imtiyozlardan foydalanish natijasida 155 korxonaning yillik aylanmasi 100 million dollardan oshdi. Kiritilgan yillik xorijiy investitsiyalar hajmi ilk bor 10 milliard dollarga yetdi. Bu 2017-yilga nisbatan 3 barobar ko'p demakdir. Biznes bilan doimiy muloqot olib borilayotgan so'nggi ikki yilda mahalliy korxonalar tomonidan 25 milliard dollarlik mahsulot eksport qilinib, shuningdek, avval import qilingan 10 milliard dollarlik mahsulotni o'zimizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

#### Biznesni qo'llab-quvvatlashning belgilangan yo'nalishlari

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yilda tadbirkorlar bilan muloqot chog'ida so'zlagan nutqida kelgusida biznes va



tadbirkorlik rivojini qo'llab-quvvatlashning beshta asosiy yo'nalishini belgilab berdi.

Ta'kidlanganidek, kichik biznesni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Har yili mikro biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga 1 milliard dollardan ziyod mablag' ajratiladi. Yil boshida kichik biznes toifasiga kimlar kirishi aniq belgilab berildi. Biroq kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning manzilli tizimi va buning uchun zarur sharoitlarni yaratish hali to'liq shakllantirilgani yo'q. Shu sababli, ushbu sektorni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaxlit ekoizim yaratiladi.

"Qishloq qurilish bank" "Biznesni rivojlantirish banki"ga aylantirilib, uning huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazi tashkil etiladi. Mikro biznesdan kichik biznesga o'tish istagida bo'lgan tadbirkorlar har oyda mahallalardagi hokim

tartibi belgilanadi. Yangi kichik biznes loyihasi yo'lga qo'yilishi bilan undan tushgan barcha soliqlar ikki yil ichida "Biznesni rivojlantirish banki"ga aylanma mablag'lar uchun o'tkaziladi. Ya'ni bank tadbirkorning yuqori darajali daromadidan manfaatdor bo'ladigan tizim yaratilmoqda. Umuman olganda, mazkur tizim 150 ming kichik biznes subyektlarining oyoqqa turishiga, 25 mingtasining o'rta toifaga o'tishiga, 250 mingta yangi doimiy ish o'rni yaratilishiga xizmat qiladi.

#### O'rta biznesni rivojlantirish bilan bog'liq tashabbuslar

O'rta biznes iqtisodiyotimizning muhim bo'g'ini bo'lishiga qaramay, uning jadal o'sishi uchun sharoitlar hali yetarli emas, chunki tijorat kreditlari bo'yicha kafiliy yoki kompensatsiya faqat Tadbirkorlik jamg'armasi tomonidan taqdim etiladi. Shu bois, kichik biznesdan o'rta biznesga o'tish istagida bo'lgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham yangi-chay yondashuvlar yo'lga qo'yilib, biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha mavjud jamg'armalarning faoliyati ham, ish uslublari ham tubdan o'zgaradi.

Tadbirkorlik jamg'armasi xizmatlar va servis sohasidagi, "yashil" va energiya samarador loyihalarga moliyaviy yordam ko'rsatish uchun, Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi esa sanoat loyihalariga mas'ul bo'ladi. Ushbu jamg'armalar budjet mablag'larini bilan cheklanmaydi, balki mustaqil investitsiyalarni jalb qilish vakolatiga ega bo'ladi. Shu orqali kelgusi yilda o'rta biznes uchun qo'shimcha 1 milliard dollar mablag' jalb qilinadi.

1-sentabrdan boshlab yangi tashkil etilayotgan Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini hisobidan yangi loyihalarni moliyalashtirish uchun xorijiy valyutada 5 foiz, milliy valyutada 10 foiz stavkada 10 yil muddatga kreditlar ajratiladi. Sanoat korxonalarga 1 yil muddatgacha xorijiy valyutada 4 foiz, milliy valyutada 10 foiz stavkada aylanma mablag' taqdim etiladi. Bunda olib kelinadigan asbob-uskuna uchun 15 foizlik avans to'lovlarini ham jamg'arma tomonidan kredit shaklida beriladi.

Ayni paytda sanoat ipotekasi tizimi ham yo'lga qo'yilib, tadbirkorlarga "tayyor biznes" shaklida ishlab chiqarish maydonlari qurib beriladi. Jumladan, har bir viloyatda kamida 3 tadan yangi sanoat zonasini tashkil etilib, ularda investitsiya majburiyatlari bajarilgandan so'ng yer maydonlarini xususiy lashtirishga ruxsat beriladi.

Tadbirkorlik jamg'armasi xizmatlar sohasi uchun mas'ul bo'ladi va unga o'rta biznes korxonalarga hissdor bo'lib kirish vakolati beriladi. Buning uchun joriy yilda jamg'armaga

qo'shimcha 25 million dollar, kelgusi yilda esa yana 100 million dollar ajratiladi. Shu bilan birga, jamg'arma tomonidan o'rta biznes uchun xorijiy valyutada kreditlarga ham kafiliy beriladi. Jamg'arma turizm, savdo va servis sohalarda "xizmatlar ipotekasi" tizimini joriy qiladi.

Ushbu ikkita yangi tizim 1-oktabrdan to'laqonli ishga tushiriladi. Kelgusi bir yilda o'rta biznes uchun sanoat sohasida 2 mingta, xizmatlar bo'yicha 10 mingta yangi loyiha moliyalashtiriladi, bu esa qo'shimcha 1 milliard dollarlik xizmatlar, 5 milliard dollarlik yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, 350 mingta yangi ish o'rni yaratish imkonini beradi.

#### Raqobatbardosh mahsulotlar bilan yangi bozorlarga kirish

O'tgan yili "Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturi yo'lga qo'yildi. Uning doirasida 100 ta yetakchi eksportchi korxona tanlab olindi. Joriy yilda mazkur korxonalar eksporti 1,5 barobar oshishi kutilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro maydondagi vaziyat hisobiga logistika xarajatlari 3-4 barobar oshib ketdi. Shu bois, ularning logistika xarajatlarni kompensatsiya qilishga qo'shimcha 100 million dollar yo'naltiriladi. Yana 25 million dollar mahsulotlarni xorijda sertifikatlash, xalqaro standartlarni joriy etish va bu borada mutaxassislar tayyorlash uchun ajratiladi. Joriy yilda ushbu dastur davom ettirilib, ishtirokchi korxonalar soni 500 taga yetkaziladi va ular uchun dasturdagi barcha imtiyozlar saqlab qolinadi.

Eksportni kengaytirish bo'yicha yana bir katta imkoniyat — nufuzli xorijiy brendlarni mamlakatimizga jalb etish hisoblanadi. Xususan, yillik bozori 100 milliard dollardan oshadigan dunyoning eng mashhur 50 ta brendi hamkorlikda ishlashga katta qiziqish bildirmoqda va mahalliy korxonalarimizga 3 milliard dollarlik buyurtma berishga tayyor.

Bu ishlab chiqarishga xalqaro standartlar, ekologiya va sertifikatlash talablarini joriy etish, mutaxassislarimizni o'qitish, ishchilar uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratishga yordam beradi. Shu munosabat bilan mashhur brendlarning mahsulotlarini olib kirish va eksport qilish uchun qulay bojxona rejimi joriy etiladi, yirik brendlarni jalb qilgan korxonalarga esa 500 million so'm miqdorida grant ajratiladi.



Eksportni kengaytirish bo'yicha yana bir katta imkoniyat — nufuzli xorijiy brendlarni mamlakatimizga jalb etish hisoblanadi. Xususan, yillik bozori 100 milliard dollardan oshadigan dunyoning eng mashhur 50 ta brendi hamkorlikda ishlashga katta qiziqish bildirmoqda va mahalliy korxonalarimizga 3 milliard dollarlik buyurtma berishga tayyor.

#### Yuqori daromadli korxonalar loyihalari

Bugungi kunga qadar xalqaro konsultantlarni jalb qilgan holda elektrotexnika, qurilish materiallari ishlab chiqarish, to'qimachilik, charam-poyabzal, zargarlik, mebelsozlik, polimer, kimyo va oziq-ovqat sanoati kabi yo'nalishlarda 140 ta tayyor loyiha ishlab chiqildi. Ularning jami qiymati 10 milliard dollarga teng bo'lib, 60 ming ish o'rni yaratish, yiliga 5 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish hamda 2,5 milliard dollarlik eksport qilish ko'zda tutilgan. Ushbu loyihalar elektron platformaga qo'yilib, tadbirkorlarga ochiq va oshkora shartlar asosida taklif etilmoqda.

Shu munosabat bilan Prezidentimiz dasturda ishtirok etish istagini bildirgan tadbirkorlar bilan shartnomalar tuzishni taklif qildi. Dasturga kirgan korxonalarga Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi hisobidan 10 yil muddatga past foizli kreditlar ajratiladi.

#### Soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish

O'tgan yetti yilda soliq sohasida amalga oshirilgan islohotlar, tadbirkorlarga berilgan imtiyoz va preferensiyalar tufayli ularning ixtiyorida 120 trillion so'mdan ziyod mablag' qoldi. O'tkazilgan so'rovlarda 62 foiz tadbirkorlar soliq sohasidagi islohotlarni ijobiy baholagan. Biroq soliq ma'muriyatchiligi murakkabligiga qolib, biznesga aralashish va tizimdagi korruptsiya holatlari saqlanib qolmoqda. Endilikda soliq xizmati tubdan isloh qilinadi, soliq ma'muriyatchiligi esa soddalashtiriladi.

Xususan, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarning aksariyati soliqlarni qaytarishda soliq uzilishi ko'effitsiyentini qo'llash, ya'ni "tax-g'iri" tizimi adolatsiz ekanini bildirgan. 1-oktabrdan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarishda bu amaliyot bekor qilinadi.

#### Tadbirkorlarning ochiq-oshkora reytingi joriy etiladi

Bunda kelgusi yilning 1-yanvardan boshlab reytingi yuqori bo'lgan korxonalar barcha turdagi soliq tekshiruvlaridan ozod qilinadi, ularga qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha qismi bir son ichida qaytarib beriladi hamda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi guvohnomasini vaqtinchalik to'xtatib turish amaliyoti bekor bo'ladi.

Tadbirkorlarning soliq idoralari bilan bo'ladigan barcha nizolarni ma'muriy sud vakolatiga o'tkaziladi. Ularning to'g'ridan-to'g'ri sudga shikoyat qilishidagi har qanday cheklavlar bekor qilinadi. Soliq bo'yicha tadbirkorlarga nisbatan da'vo kiritish muddati hozirgi 5 yildan 3 yilga qisqartiriladi.

Hozirgi kunda tadbirkorlar 140 dan ortiq hisobot doirasida 8 mingga yaqin ko'rsatkichlarni 16 idoraga topshirishga majbur. Oqibatda 500 ming tadbirkor har yili bu kabi turli hisobotlarni tayyorlash uchun 300 milliard so'm mablag' sarflamoqda. Shu bois, 2024-yil 1-yanvardan boshlab eskirgan hisobotlar to'xtatiladi, barcha hisobotlar yagona elektron tizim orqali taqdim etiladi va ularning qog'oz shakli bekor qilinadi.

#### Xulosa

O'tgan yilgi ochiq muloqot yakunlariga ko'ra, biznesni manzilli qo'llab-quvvatlashga o'tish uning xususiyatlari va faoliyatning hududiy shartlaridan kelib chiqqan holda belgilangan bo'lsa, bir yil davomida bu yo'nalishdagi ishlar natijasi ushbu yondashuvning samaradorligini to'liq tasdiqladi.

Shu bilan birga, joriy yil 18-avgustda bo'lib o'tgan muloqot chog'ida muvaffaqiyatli korxonalarining mikrodan kichik korxonaga, kichikdan o'rta, o'rtdan (jahon bozorida yuqori raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi) yirik korxonaga shaklida o'sishini rag'batlantiradigan biznesni rivojlantirishning yagona keng qamrovli tizimini yaratish kabi yanada ulkan va istiqbolli vazifalar belgilandi. Hududlarda biznesning barcha turlarini qo'llab-quvvatlashning manzilli va individual ekani eng raqobatbardosh korxonalarining bunday evolyutsiyasi va muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Bu esa O'zbekiston iqtisodiyoti yetarlicha yuqori o'sish sur'atlarini saqlab turishi uchun zarur, busiz fuqarolarning turmush darajasini munosib darajada oshirishni ta'minlab bo'lmaydi. Shunday ekan, Tadbirkorlar kunida 44 tadbirkor orden va medallar, 126 nafari esa "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni bilan taqdirlanishi asoslidir.



Boshlanishi 1-betda

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish belgilangan.

Shuningdek, unda innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud muqobilardan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xomashyo narxiga nisbatan 2-3 barobar yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan



**Husan MAMEDOV,**  
iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirish, jumladan, umumiy qiymati 165,9 milliard so'mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan.

Mana shu rejalarining o'ziyoq mamlakatni innovatsion rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor nechog'liq ustuvor ahamiyat kasb etishini anglatadi. Muhimi, bu boradagi ishlar izchillik kasb etayotir. Bitta misol. Prezidentimiz joriy yil aprel oyida Sirdaryoga tashrifi chog'ida viloyatni sanoat, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, ta'lim va tibbiyot bo'yicha "ilg'or innovatsiyalar hududi"ga aylantirish zarurligini aytdi.

Faollar bilan uchrashuvda innovatsion hududda hokim, viloyat, tuman rahbarlari aholi va tadbirkorlarga sharoit yaratish bo'yicha har kuni yangilikka intilishi, dunyoqarashi va yondashuvlarni o'zgartirish kerakligini ta'kidladi.

Chindan ham, bugun har bir jabhada yangilik, izlanish birlamchi o'rinda turadi. Bularsiz taraqqiyotni tasavvur etib

bo'lmaydi. Zero, bu atamaning ma'nosi ham shuni anglatadi. Ya'ni "innovatsiya" so'zi lotincha "novatio" so'zidan olingan bo'lib, "yangilanish" (yoki "o'zgarish") degan ma'noni bildiradi. "in" qo'shimchasi esa lo-



## INNOVATSIYA

miyat berishi kerakligi aniqlanadi, xato va kamchiliklar ustida ishlanaadi. Shu ma'noda, mazkur reytinglar biror davlatning shunchaki u yoki bu sohada o'rini belgilovchi baho emas, islohotlarda qaysi yo'nalishlarga ahamiyat berishi lozimligi, buning natijador yo'llarini izlab topish zarurligini belgilab beruvchi muhim vosita ekanini aytish joiz.

Jahon intellektual mulk tashkiloti o'z hisobotlarida 20 ga yaqin davlatda innovatsion rivojlanish tobora jadallashayotganini e'tirof etadi. Shveysariya, AQSH, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Finlyandiya, Gonkong, Singapur, Tayvan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya, Daniya va Irlandiya shular sirasiga kiradi.

### Indeksda yaxshilanish odamlar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

2022-yil natijalariga ko'ra, O'zbekiston Global innovatsion indeksda 82-o'rinni



Ekspertlar mintaqalar kesimida 3 tadan mamlakatni "2022-yilda innovatsiyalar bo'yicha global yetakchilar" sifatida alohida qayd etdi. O'zbekiston ilk bor shunday e'tirof etilgan mamlakatlar safidan o'rin oldi. Ya'ni O'zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyo



# HECH BIR O'ZGARISH BEIZ KETMAYDI

tinchadan "yo'nalishida" deya tarjima qilnadi. Agar bu yaxitl "innovatio" ko'rinishida tarjima qilinsa, "o'zgarishlar yo'nalishida" deb izohlash mumkin. Shu jihatdan, innovatsiya, ilg'or g'oyalar har bir tarmoq zarurati, desak mubolag'a bo'lmaydi, nazarimizda.

Siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa islohotlar samarasi turli ko'rsatkichlar orqali tuziladigan reytinglar bilan baholanadi. Xususan, innovatsion rivojlanish darajasi Global innovatsion indeks (GI) bilan o'lanadi. Mazkur tashkilot tomonidan 131 davlatning innovatsion darajasi 80 dan ortiq ko'rsatkich bo'yicha baholab boriladi.

Mamlakatlarning innovatsion imkoniyatlari va ushbu sohada o'zgarishlari yillik reytinglari Jahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT), Fransiyaning INSEAD xalqaro biznes maktabi hamda Kornell universiteti tomonidan ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida e'lon qilinadi.

Global innovatsion indeks bir necha kichik indekslar, ularning har biri esa yana toifalarga bo'linadi. Mazkur subindekslarni o'rganish, tahlil qilish orqali mamlakat innovatsion rivojlanishida qanday jihatlarga aha-



egalladi. E'tiborli jihati, mazkur reytingda 2015-yildagiga nisbatan 40 pog'ona ko'tarilish qayd etildi.

mintaqasida Hindiston va Erondan keyin innovatsiyalar bo'yicha Top-3 davlatdan biri bo'ldi.

O'zbekistonning indeksdagi o'rni yaxshilanishi odamlar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Ko'pchilikni shu savol qiziqtirishi mumkin. Ushbu savolga, avvalo, uning ko'rsatkichlari iqtisodiyotning deyarli barcha jabhalarini qamrab olganida, deya javob bersa bo'ladi. Ya'ni reytingda tibbiyot, ta'lim, institutsional rivojlanish, qishloq xo'jaligi, sanoat, energetika, bank-moliya kabi sohalaridagi har bir o'zgarish va uning natijalari inobatga olinadi.

Mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy hayotida



## YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

# KECHAGIGA O'XSHAMAS...

**Farhod NE'MATOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Kechagi Jizzax bilan bugungisi o'rtasida katta farq bor.

Viloyatning sanoat kirib bormagan hududi qolmadi hisob. Tez sur'atlarda o'z brendlariga ega bo'layotgan viloyatda 2016-yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi 7,8 trillion so'mni tashkil qilgan bo'lsa, o'tgan yili 27,1 trillion so'mga yetdi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2016-yildan buyon 5,5 barobar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi, 3,3 barobar, qurilish ishlari 3,7, xizmat ko'rsatish sohasi esa 3,6 barobar o'sdi. 2026-yilgacha to'rt mingdan ziyod o'rta va kichik investitsiya loyihasi amalga oshirilib, 120 mingta yangi ish o'rni yaratish maqsad qilingan.

Buning uchun mashinasozlik, elektrotexnika, energetika, qurilish materiallari, oziq-ovqat, to'qimachilik, charm-poyabzal kabi sohalaridagi sanoat loyihalarini ishga tushirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha salohiyatli hudud. Shuning uchun so'nggi yillarda yangi sanoat tarmoqlari vujudga keldi. Sement va bazaltidan qurilish materiallarini eng zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarish ilk bor shu hududda boshlandi. Keyingi besh yillikda viloyatda 310 ta yangi loyiha amalga oshirildi.

Forish, Baxmal, Zafarobod va Yangiobod tumanlarida 56 ta kon o'zlashtirilib, ixtisoslashtirilgan klasterlar tashkil etish belgilangan. Birgina Forish tumanida bazalt tosh chuqur qayta ishlaniib, kompozit quvur, mineral plita, armatura, sun'iy tola, gazetka kabi mahsulotlar ishlab chiqaradigan texnopark tashkil etilganini hisobga oladigan bo'lsak, bu yerdagi loyihalar soni 13 taga yetadi.

Jizzaxda to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Paxtani qayta ishlash yo'nalishida o'tgan yili sakkizta is-

tiqbolli loyiha ishga tushishi natijasida 1174 ta yangi ish o'rni yaratilgan bo'lsa, oziq-ovqat sanoati tizimida uchta yangi loyiha ishga tushirildi va 350 kishi doimiy ish bilan ta'minlandi.

Bugungi kunda viloyatda jami 4533 ta sanoat korxonasi mavjud bo'lib, yiriklari 30 ta, kichik sanoat korxonalari 2721 tani tashkil etadi. Ular tomonidan shu yilning yarim yili yakuni bo'yicha 8,8 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, — deydi viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo'yicha yordamchisi Sarvar Abdullayev. — Bundan tashqari, viloyatda 2023-2024-yillar uchun yangi shakllantirilgan mahalliy lashtirish dasturiga asosan, 52 ta korxonada 86 turdagi import o'rini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarilishi rejalashtirilmoqda.

Umuman, sanoatni rivojlantirish bo'yicha yaratilgan imkoniyatlar natijasida joriy yilga kelib, mahalliy lashtirish dasturi korxonalari soni 2017-yildagiga nisbatan sakkiz karra, loyihalar soni 4 ta, ishlab chiqarish hajmi esa 412 karra oshdi.

Viloyatda mahalliy lashtirish dasturi doirasida so'nggi olti yilda 539 turdagi yangi mahsulot, xususan, elektr o'tkazgichlar, turli maishiy texnika buyumlari, 300 turdan ziyod ventili, aksessuar, quyovsh suv isitkichlari, eksportbop qandolat mahsulotlari, sendvich panel kabilarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

2019-yilda Jizzax viloyatida avtomobil sanoati yirik klasteri tashkil etilishi aytilgan edi. Ushbu niyatlar bugun ijobat bo'lmog'da.



Ayni paytda avtomobilsozlik sanoatida tayyor avtomobil va butlovchi qismlar ishlab chiqarishdan tortib sohaga kerakli kadrlar tayyorlashni ham o'z ichiga oladigan tayyorlov sohalarini qamrab oluvchi yirik klaster tashkil etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

O'tgan yili oxirida "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasida ishga tushgan "ADM Jizzax" avtomobil zavodi konveyeridan yaqinda o'n minginchi KIA avtomashinasi chiqdi. 2021-yilda ish boshlagan zavod yiliga 25 ming dona avtomobil yig'ish quvvatiga ega bo'lib, loyiha-ni birinchi bosqich qiymati 12 million AQSH dollaridan oshgan. Bugungi kunda ushbu zavod multibrend hisoblanib, unda 13 turdagi KIA, Renault, Chery va Lada avtomobillari yig'iladi. Hozir korxonada 150 nafarga yaqin malakali mutaxassis ishlamoqda.

Ikkinchi bosqichda "Jizzax avtomobil zavodi" tomonidan Volkswagen tijoriy avtomobillari, uchinchi bosqichda esa "Auto Motors Asia" tijoriy va yuk avtolarini ishlab chiqarish mo'ljallanmoqda.

Joriy yilning 19-may kuni muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalari asosida avtomobillar ishlab chiqaradigan "BYD Uzbekistan Factory" zavodi qurilishiga start berildi. Ishlab chiqarish maydoni 10,6 gektar bo'lgan mazkur zavod "Jizzax Auto" negizida tashkil etilib, xalqaro sifat va xavfsizlik standartlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadi. U NEV avtomobillarini ishlab chiqarish bo'yicha ilg'or texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi.

Viloyatda sanoat tarmoqlari rivojlanishi barobarida eksport hajmi ham ortib bormog'da. O'tgan yili 211 million dollarlik eksport amalga oshirilib, 2016-yildagidan 2,5 barobar ko'paygan, — deydi viloyat Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi bo'limi boshlig'i Ma'ruf Malikov. — Shu davrda 35 turdagi mahsulot eksporti amalga oshirildi va 12 turdagi yangi mahsulot eksportga chiqarildi. 2016-yilda 59 ta eksportchi korxona mavjud bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda 173 ta korxona mahsulotlarni Rossiya, Xitoy,

Turkiya, Qozog'iston, Tojikistonga sotdi. Eksport geografiasini 24 davlatdan 42 davlatga, jumladan, Chili, Peru, Shimoliy Makedoniya, Senegal, Moldova kabi davlatlarga kengaytdi.

Ayni paytda viloyat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi sohasining ulushi katta. 2016-2022-yillar davomida qishloq xo'jaligida 1216 ta loyiha foydalanishga topshirilishi natijasida 14,8 ming odam ishi bo'ldi. Ayniqsa, foydalanishdan chiqqan bo'z yaylov yerlar o'zlashtirilishi orqali qishloq xo'jaligi ekin maydonlari kengayib, mahsulot ishlab chiqarish hajmini yanada ko'paytirish imkoniyati yaratildi. So'nggi uch yilda 8283 gektar suvli yer, 49 506 gektar lalmi maydon dehqonchilik uchun o'zlashtirildi va aholi farovonligiga xizmat qilmoqda.

Fermer, klaster va olimlar hamkorligi, sohaga ilmiy innovatsion yondashish natijasida rentabelligi past yerdardan yuqori hosil olish mumkinligi amalda o'z isbotini topmoqda. Paxta hosildorligi yuqoriladi. Tatbiq etilayotgan ilg'or zamonaviy texnologiyalar samarasida g'allachilikda ham yuqori marralar zabt etilmoqda. Bundan yetti yil oldin suvli yerlarda g'alla hosildorligi o'rtacha 32,4 sentner edi. Bugunga kelib, bu ko'rsatkich 73,7 sentnerga yetdi. Hatto joriy yilda gektaridan 100 sentnerdan ziyod hosil olgan fermer xo'jaliklari bor.

Viloyatdagi yer maydonlari paxta va g'alladan qisqartirilib, dehqon xo'jaliklari tashkil qilindi. Buning natijasida 47 920 ta ish o'rni yaratildi. Joriy yilda 4460 gektar yer auktsion orqali sotildi, yetti mingga yaqin dehqon xo'jaligi tashkil qilindi va uch mingga yaqin ish o'rni paydo bo'ldi.

Dala chetlariga tut ko'chatlari, mevali daraxtlar, sabzavot, poliz va boshqa ekinlar ekildi. Fermer xo'jaliklarida dala shiypolari tashkil etilib, parranda va asalari boqish yo'lga qo'yildi.

Jahon banki xulosasiga ko'ra, 2050-yilga borib, Sirdaryoning suv resurslari 5 foiz, Amudaryoniki 15 foizgacha kamayishi bashorat qilinmoqda. Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalardan samarali foydalanish va lo'larni

taraqqiyot strategiyasi kabi hujjatlar ishlab chiqildi. Shuningdek, "ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi, "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Bu hujjatlarning amaliyotga joriy qilinishi, tabiiyki, yurtimizda innovatsion ekotizimning tegishli elementlari to'liq shakllanishi va izchil rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunda, ayniqsa, 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasining ahamiyati yuqori. Chunki uning asosida yuqori texnologik va ilm-fanga asoslangan yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari hamda yuqori daromadli ish o'rnlari yaratish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Strategiyadan kutilayotgan natijalar ham salmoqli. Jumladan, u orqali yoshlarda yaratuvchanlik, innovatsion tadbirkorlik va ratsionalizatorlik qobiliyatini shakllantirish, sohada mutaxassislarni ko'paytirish, xalqaro maydonda mamlakatning ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan, bozor talablariga moslashuvchan milliy innovatsion infratuzilmani shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida tadbirkorlik muhitini yaratish va ixtisoslashtirilgan "spin-off" kompaniyalar tashkil etish, milliy iqtisodiyotga innovatsion mahsulot va yechimlarni joriy qilishning zamonaviy "zanjiri" va yagona tizimini yaratish orqali jozibadorligini oshirish kabi ko'plab vazifalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning olti oyida mamlakatimiz IT Park rezidentlari tomonidan 145 million dollarlikdan ortiq eksport amaliyotlari bajarilgan. Bu boradagi ko'rsatkich yil sayin yaxshilanib, O'zbekistonni IT xabga aylantirish bo'yicha uzoqni ko'zlab qo'yilgan maqsad sari dadil qadam qo'yilayotganini anglatadi. Ekspertlar fikricha, yurtimizda yaratilgan sharoitlar saqlab qolinsa va ishlar tizimli ravishda rivojlanishga davom etsa, 2030-yilga borib, bir yillik eksportni 5 milliard dollarga chiqarish imkoniyati to'liq yaratiladi. Binobarin, innovatsion iqtisodiyot mana shunday yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishga tayanadi.

Aslida, innovatsion rivojlanish tushunchasi bugun paydo bo'lib qolgan yo'q. U ilk bor XIX asr madaniyatshunoslari tomonidan qo'llanilgan. Turli xalqlar madaniyatlarining bir-biriga ta'siri natijasi sifatida paydo bo'lgan o'zgarishlar yangilik, ya'ni innovatsiya, deb talqin qilingan. XX asr boshlaridan esa ushbu ibora iqtisodchilar leksikasiga kirib keldi. Bunda olimlar va mutaxassislarni innovatsiyalarni aynan iqtisodiyotda vaqtvaqti bilan ro'y beradigan inqirozdan chiqishning muhim vositasi sifatida o'rgana boshladi. Uni amalga oshirish siyosati nazariniyati tadqiq etish XX asrning 70-80-yillaridan boshlab kuchaydi. Lekin innovatsiya qaysi sohada qaysi shaklda qo'llanilishidan qat'i nazar, bir maqsadga — rivojlanishga xizmat qilish kelmoqda. Innovatsiya mamlakatlarning boylik va iqtisodiy o'sish, odamlar turmushini yaxshilash manbai bo'lib kelmoqda. Yangilik esa taraqqiyot belgisidir.

Maqola avvalida keltirganimiz — O'zbekistonning 2030-yilga qadar innovatsion rivojlangan 50 mamlakat qatoriga kirish masalasi hozirgi amalga oshirilayotgan ishlar misolida yanada aniq va ahamiyatli bo'lib bormog'da.

kengaytirishni taqozo etadi. Viloyat fermer xo'jaliklari tomonidan 2016-2022-yillar mobaynida 75,3 ming gektar maydonda tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilib, 2019-yilda 11,2 million kub metr suv tejalgan bo'lsa, 2023-yilga kelib, 28,9 million kub metr suv tejilishiga erishildi.

Iqtisodiy yuksalishlar, o'z navbatida, shahar va qishloqlarning o'zaro qiyofasida, aholining farovon turmushida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Mavjud 308 ta qishloq mahalla fuqarolar yig'ini infratuzilmasini yaxshilash maqsadida tasdiqlangan dasturlar doirasida so'nggi olti yilda jami 6 trillion so'mdan ziyod mablag' ajratilgan. Natijada nafaqat Jizzax shahri, balki tumanlar markazi va mahallalar ham zamonaviy, obod, ko'rkam manzillarga aylanmoqda.

Viloyat aholisi salomatligini saqlash, ularga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, yangi turdagi va yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlarni yo'lga qo'yish borasida ham ibratli ishlar qilinmoqda. Tibbiyot muassasalari ko'payib, o'rinalar soni oshdi. Viloyatning 97 ta mahallasida yangi poliklinikalar ochildi. Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlaridan 8 tasinin viloyat filiallari tashkil etildi. Xususan, 2 ta shunday markaz uchun yangi binolar qurilib, dunyo standartlariga javob beradigan so'nggi rusumdagi zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlandi.

Mazkur filiallarda eng murakkab turdagi jarrohlik amaliyotlari ham o'tkazilmoqda. O'tgan yili viloyat markazida ikki marta buyrak ko'chirish jarrohlik amaliyoti bajarilgan bo'lsa, joriy yil Zomin tumanida ham shunday operatsiya muvaffaqiyatli bajarildi. Holbuki, oldinlar bunday murakkab jarrohlik amaliyotlarini hatto Toshkentda ham o'tkazish imkonsiz edi.

Xullas, viloyatda qaysi sohani qaramang, islohotlarning ijobiy ta'siri, natijadorligini, aholining hayotdan roziligini, ertangi kunga katta ishonch bilan yashayotganini sezasi. Bu esa Jizzax viloyati yaqin yillarda yanada rivojlangan hududga aylanishidan darak beradi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



ILM-FAN

# MAS’ULIYAT, ANIQLIK VA TARTIBGA O‘RGATADIGAN FAN

## NAFAQAT MASALALAR YECHISH, BALKI HAYOTIY MUAMMOLARNI HAL QILISHDA HAM QO‘L KELADI

**Sa’dulla SHARIPOV,**  
**O‘ZFA Matematika instituti katta ilmiy xodimi,**  
**institut huzuridagi yosh olimlar kengashi raisi**



Dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lib borayotgan yangi O‘zbekistonda ilm-fanni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Matematika, fizika, kimyo, biologiya, geologiya kabi yo‘nalishlarda fundamental, amaliy tadqiqotlar faollashib, olimlarga barcha shart-sharoit yaratilayotgani yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ilm-fan, ta’lim tizimining o‘rni nihoyatda beqiyos ekanini anglatadi.

informatika bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilyapti.

Bu borada, ayniqsa, matematika fani va ta’limiga qaratilayotgan e’tibor matematiklarga ulkan mas’uliyat yuklaydi. Matematika ko‘pchilik tasavvurida juda qiyin fan. Lekin uning kundalik hayotimizda uchraydigan ko‘plab masalalarga tatbiqi va bu masalalar yechimi tahlili matematika fani qo‘llash doirasi cheksiz ekanini ko‘rsatadi.

Matematik masalalarni to‘g‘ri yechish uchun konsentratsiya, mas’uliyat, aniqlik va tartib kerak. Ushbu instinktlarning ko‘p ishlatilishi ularning mustahkamlashiga olib keladi. Bu esa nafaqat masalalar yechish, balki hayotiy muammolarni hal qilishda ham juda qo‘l keladi. Shiddat bilan o‘zgarayotgan hozirgi zamonada noodatiy fikrlash qobiliyati va strategik tahlil qila oladigan kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bunday ko‘nikmalarni esa aynan matematika fani shakllantiradi.

Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti matematika fani va ta’limini rivojlantirishga, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga sezilarli hissa qo‘shdi va matematik tadqiqotlari jahon darajasida e’tirof etilgan markazlardan biriga aylandi. Institutning eng katta yutuqi sifatida dunyo matematika hamjamiyati tomonidan tan olingan algebra va funksional tahlil, differensial tenglamalar, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika ilmiy maktablari yaratilganini e’tirof etish mumkin. Bu maktablarni bugun akademiklar, fanning yetuk namoyandalari boshqarib kelmoqda.

Hozir institutda zamonaviy matematikaning dolzarb yo‘nalishlari bo‘lgan algebra va funksional tahlil, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, dinamik sistemalar, differensial tenglamalar, hisoblash matematikasi, tibbiy-biologik



qiqot muassasalari o‘zaro integratsiyasini ta’minlash uchun Talabalar shaharchasida Matematika institutining zamonaviy binosi barpo etildi. Sohadagi fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmi uch barobar oshirildi. Budget mablag‘lari hisobidan superkompyuter, zamonaviy texnika va uskunarlar xarid qilindi. Ilmiy darajali kadrlar tayyorlashning birlamchi bosqichi sifatida stjajor-tadqiqotlik instituti joriy etildi. Matematika fani va ta’limini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil qilindi.

Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan matematika yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar va tadqiqotchilar uchun akademik T.A.Sarimsoqov nomidagi stipendiya ta’xis qilindi. Shuningdek, institutda matematika ta’limi bo‘yicha o‘quv-uslubiy materiallarni muvofiqlashtirish laboratoriyasi tashkil qilindi. Davlat ta’lim muassasalarida matematika fani



“

**Hozir institutda zamonaviy matematikaning dolzarb yo‘nalishlari bo‘lgan algebra va funksional tahlil, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, dinamik sistemalar, differensial tenglamalar, hisoblash matematikasi, tibbiy-biologik informatika bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilyapti.**

bo‘yicha foydalaniladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarga majburiy tartibda laboratoriya mutaxassislari ekspert xulosasi beradi. Shu bilan birga, iqtidorli yoshlar orasidan malakali kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishni inobatga olib, 2020-yil 1-noyabrga qadar har bir tuman (shahar)da matematika fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etilishi belgilandi.

2020-yilda Matematika institutining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Namangan, Samarqand, Xorazm viloyatlaridagi hududiy bo‘linmalari tashkil etildi. Ular viloyatlardagi matematik olimlar va yosh tadqiqotchilarning ilm-fan bilan uzluksiz shug‘ullanishini ta’minlashni nazarda tutadi. Hududiy bo‘linmalarda 22 nafar fan doktori, 22 nafar fan nomzodi va fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori faoliyat yuritmoqda. Aynan o‘sha yili institut huzurida fizika-matematika fanlari bo‘yicha ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash tashkil etildi.

Institut 2021-yildagi ilmiy va innovatsion natijalari bilan milliy reytingda yetakchi ilmiy tashkilotlar ro‘yxatidan joy oldi. O‘ttizta vazirlik va idora tasarrufidagi 105 ta ilmiy tashkilotning ilmiy-innovatsion faoliyatiga oid 75 ko‘rsatkichdan iborat rasmiy ma’lumotlar 27 yo‘nalish bo‘yicha tahlil qilindi. Matematika faniga qaratilayotgan e’tibor samarasi o‘laroq, institut

xodimlarining ilmiy tadqiqoti 5 marta davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. Institutning 12 nafar taniqli olimi Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zoriga, 5 nafari esa Jahon fanlar akademiyasi (TWAS) a’zoriga saylangan. Yosh olimlarimizdan 6 nafari TWAS tashkilotining yosh olimlar bo‘limi tanlovlarida g‘olib chiqqan.

Institut jamoasi ko‘pgina e’tirofga arziqlik yutuq va marralarga erishdi. 2017-yili professor O‘tkir Roziqov Springer-Nature nashriyotining “Springer Nature top Author” sertifikatini bilan taqdirlandi. 2017-yilda akademik Shavkat Ayupov, Karimbergan Kudaybergenov, Bahrom Omirov va O‘tkir Roziqov fan-texnika sohasida davlat mukofotiga loyiq topildi. “Scopus Award-2019” tanlovida Shavkat Ayupov “Top researcher in Natural sciences” (“Tabiiy fanlar bo‘yicha yil tadqiqotchisi”) deb e’tirof etildi. 2020-yilda professor O‘tkir Roziqov Islom hamkorlik tashkilotining “Eng yaxshi ilmiy maqola” nominatsiyasi bo‘yicha xalqaro mukofotga sazovor bo‘ldi. 2021-yili professorlar O‘tkir Roziqov va Farrux Muxamedov Elsevier nashriyoti va Stendford universiteti tomonidan dunyoning yetakchi olimlari ro‘yxatiga kiritildi. 2022-yil Matematika instituti professori Ravshan Ashurov Springer-Nature nashriyoti jurnallarida ilmiy ishlari eng ko‘p chop etilgan o‘zbek olimlarining yetakchi beshtaligi ro‘yxatidan joy oldi.

Matematika instituti direktori, akademik Shavkat Ayupov “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan mukofotlandi. Institut iqtidorli yosh olimlari ham ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi bo‘yicha davlat mukofotlari va stipendiyalarga loyiq ko‘rildi. Jumladan, 2020-yilda institut yosh olimi, professor Abror Xudoyberdiyev “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi. 2019-o‘quv yilida tayanch doktorant Jasurbek Karimov, 2022-o‘quv yilida Sobirjon Shoymardonov, 2023-o‘quv yilida Zafar Boxonov Prezident stipendiyasi bo‘ldi. Tayanch doktorant Shomurod Shopovlatov “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Bunday mukofotlar ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan yoshlarni rag‘batlantiruvchi, ularni yangi marralar sari undovchi omilga aylangan.

Bugun barcha sohalar qatori ilm-fanda ham xalqaro hamkorliksez o‘shiga erishib

bo‘lmashligi barchaga ayon. Institutning chet eldagi yirik ilmiy markazlar va universitetlar bilan ilmiy aloqalaridan yetuk kadrlarni tayyorlashda keng foydalanilmoqda. Xususan, dunyo reytingida dastlabki 300 talikka kirgan universitetlarda falsafa doktori ilmiy darajasiga ega bo‘lgan institut xodimlaridan 2 nafariga OAK tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri fan doktori (DSc) ilmiy darajasi berildi. Shu bilan birga, Belgiyaning Gent universiteti va Matematika instituti hamkorligida qo‘shma doktrik dasturlari ham yo‘lga qo‘yilgan. Tayanch doktorant Bahodir Toshmurov Gent universitetida mazkur dastur bo‘yicha o‘qishni yakunlab, falsafa doktori dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

2017-2019-yillarda AQSHlik 29 nafar talaba talabalar uchun xalqaro tadqiqot amaliyoti loyihasi bo‘yicha institutda yozgi ilmiy semestrda qatnashdi. Bu talabalar olgan ilmiy natijalari asosida ikkinchi O‘zbek-Amerika konferensiyasida ma’ruza qildi va xorijning nufuzli jurnallarida bir qancha ilmiy maqolalar chop etdi. Shu nuqtayi nazardan, erishilayotgan zafarlar Uchinchi Renessans poydevori mustahkamlanayotganiga yana bir dalil aslida.

Institutimiz tashabbusi bilan AQSHning Kaliforniya universiteti, Buyuk Britaniyaning Imperial College London universiteti, Germaniyaning Myunxen universiteti, Malayziyaning MARA texnologiyalar universiteti, Birlashgan Arab Amirliklari universiteti, shuningdek, boshqa bir qancha xorijiy ta’lim dargohlarida faoliyat yuritayotgan vatandoshlar bilan hamkorlikda yetakchi professor-o‘qituvchilarning onlayn mahorat darslari uzluksiz o‘tkazib kelinadi. Bu esa, o‘z navbatida, yosh olimlarning fanga qiziqishini yanada oshiradi.

2018-yili SIMPA tadqiqot maktabining “Naossotsiatiiv algebra va ularning tatbiqi” mavzusidagi loyihasi taqdimoti institutimizda bo‘lib o‘tdi. Bu loyihadan ko‘zlangan asosiy maqsad yurtimiz va qo‘shni mamlakatlardan kelgan yosh tadqiqotchilar uchun naossotsiatiiv algebra bo‘yicha jahonning yetakchi matematiklari tomonidan ma’ruzalar o‘qish va olingan so‘nggi ilmiy natijalar bo‘yicha fikr almashishdan iborat.

Institutimiz huzurida yosh olimlar kengashi tuzilgan. Unga 40 yoshgacha bo‘lgan ilmiy xodimlar, tayanch doktorantlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar a’zo. Bu kengash kollegial jamoat organi bo‘lib, institutdagi yoshlarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga tizimli asosda yo‘naltirish, mavjud ilmiy maktablar an’analarini davom ettirish, yangi ilmiy maktablarni shakllantirishga zamin yaratish, yosh olimlarning ilmiy-jodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini izchil rivojlantirish, ularning mutaxassissliklar hamda tadqiqot mavzulariga qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Hozir kengash tarkibida 60 dan ortiq yosh olim bo‘lib, ulardan 4 nafari fan doktori, 16 nafari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega. Davlatimiz bizga bildirgan ishonch va keng imkoniyatlaridan oqilona foydalanib, oldimizda turgan istiqbolli rejalarni amalga oshirishda bir oila bo‘lib fidokorona mehnat qilaymiz. Bugun olimlarimiz mamlakatimiz ilm-fani yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘tamoqda. Bu yo‘lda yurt taraqqiyotiga va dunyo ilm-faniga salmoqli hissa qo‘shish uchun barcha imkoniyatlarimiz mavjud.



ZAMONDOSHLARIMIZ

## “RULNI BOSHQARGANIMDA PEDALGA OYOG‘IM YETMASDI”

Oddiy dehqon oilasida kamolga yetgan yosh fermer Gulira’no Xoliqova ota-onasining etagidan tutib, tuproqli dalalarda yalangoyoq chopganida jamalak sochli qizaloq edi. Bolalikdan yaqinlariga yelkadosh, mol-qo‘y boqib, oilasi koriga yarashga harakat qilgan Gulira’no o‘z taqdirini mana shu ilon izli so‘qmoqlar, keng paykallar bilan bog‘lab, ko‘pning e’tiboriga tushdi, izzat-hurmat topdi. Yerni shudgorlash, ekishga tayyorlash, yagana, chopiq, chekanka, paxta terish kabi mavsumiy yumushlar yosh fermerni har jihatdan chiniqtirdi, tajribasini oshirdi.

Unumdorligi past, sho‘rxoq yerlarda dehqonchilik qilishning o‘zi bo‘lmaydi. Yerning meliorativ holatini yaxshilash, hosildorligini oshirish borasida tinim bilmadi, izlandi, imkoniyat qidiradi. Erta tongda dala kezdi, ekinlar holatini nazorat qilib, ishchilar bilan bahamjihat suhbatlashib, kezi kelganda texnikani boshqardi, qo‘liga ketmon olib, ko‘p qatori suv yoqaladi.

— Dadam uzoq yillar texnika bilan “tilashganlardan”. Shu bois, texnika boshqarishga, ta’mlirishga qiziqaman, — deydi Gulira’no dala chetidagi turfa texnikalarga ishora qilib. — Traktor rulini boshqargan ilk kezlarimda, oyog‘im mexanizm pedalini bosishga yetmasdi. Lekin astoydil harakat qilganman, bilmaganimni so‘rab o‘rganganman. Dehqonchilikning oltin qoidasi bor. Obi-tobida qilingan ishning barakasi mo‘l bo‘ladi. Mavsum pallasida

o‘zim rulga o‘tirib, g‘o‘za qator oralariga ishlov beraman.

Aytishlaricha, ilgari bu yerlardan nari borsa 20-25 sentnerdan paxta terib olingan. G‘allachilik ham oqsoq sohalardan bo‘lgan. Manfaatdorlik yo‘qligi bois, ishchi-xizmatchilar qo‘nimsiz edi. Endilikda bu yerdagi holat, manzara o‘zgardi. O‘ttizdan ortiq ish o‘rni yaratildi. Tartib bilan ekinlarni dov-daraxtlar, baravj rivojlanayotgan ko‘m-ko‘k g‘o‘zalar hosil mo‘lligidan darak berib turibdi. Har bir tup g‘o‘zada 40-50 tagacha hosil tugunaklarini sanadi.

Fermer xo‘jaligi o‘tgan yili paxtadan 50 sentnerdan, bu yilgi g‘alladan 90 sentnerdan ortiq hosil yig‘ishtirib oldi. Shartnomadan ortgan g‘alla fermer xo‘jaligi a‘zolari, kam ta’minlangan oilalarga bo‘lib berildi. Natijada odamlarning unga bo‘lgan ishonchi ortdi. Mehnatidan man-

faat topayotgan ishchi-xizmatchilar safi ko‘paydi, xo‘jalikning iqtisodiy salohiyati rivojlandi. Joriy yil g‘allachilikdan ko‘rilgan yalpi daromad salmog‘i 400 million so‘mdan oshdi. 31 gektar paxta maydonidan 55 sentnerga yetkazib hosil terib olish ko‘zlab turibdi. Gulira’no o‘tgan qishloq xo‘jaligi yili yakunlari doirasida “Ilg‘or fermer” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

— Opam shifokor, uyimdagilar meni ham qiz bolaga xos kasb-hunar tanlashim kerakligini aytib, fermerlik ishimga bir oz qarshilik bildirgan. Ish og‘ir, vazifa yuki, mas’uliyat kattaligi, qiyinlab qolishimni ko‘p takrorlashgan. Ammo men ahdimdan qaytmaganman, — deydi fermer so‘zini davom ettirib. — Biz jamiyatning eng ilg‘or kishilariga aylandik. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, qishloq xo‘jaligiga ilm olib kirish, agrar sohada qo‘shilgan qiymati zanjirini yaratish yo‘lida mehnat qilaymiz, izlayapmiz. Paxta va g‘allachilik klasterlari har jabhada ko‘mak bermog‘da.

Hali o‘ttizga ham kirmagan, Andijon qishloq xo‘jaligi va agroteknologiyalar instituti magistranti Gulira’no paxta yetishtirish agroteknikasi yo‘nalishida ilmiy izlanishlar olib bormog‘da. Ya’ni ekinlarni kimyoviy vositalar bilan emas, balki organik o‘g‘itlar yordamida yetishtirish, qo‘l mehnatini kamaytirishga alohida e’tibor qaratyapti. Bu usul iqtisodiy samarador-



ligi bilan ajralib turadi. Masalan, bir gektar yerda paxta yetishtirish uchun o‘rta hisobda 1000–1200 kilogramm kimyoviy o‘g‘it sarflanadi. Bu qariyb 7–8 million so‘m xarajat degani. Organik usulda esa bu miqdor 7–8 hissaga kamayadi. Eng muhimi, ekin maydonlari unumdorligi yildan-yilga ortib boradi. Tabiiy vositalar yordamida yetishtirilgan ekologik toza hosilning salmog‘i, sifati ham yuqori bo‘lgani bois, xaridorgir.

— Bugungi fermerni bundan besh-olti yil avvalgi fermer bilan qiyoslab bo‘lmaydi,

— deydi Yo‘lchiboy aka Xoliqov. — Avvallari sutini ichib turgan uyimizdagi sigirimizni sotib, belgilangan rejani bajarishga majbur bo‘lganmiz. Majlisbozlik, yuqoridan kelayotgan buyruqlar, komissiyalar tinkamizni quritgan. Jon hovuchlar kun o‘tkazirdi. Endilikda hamma narsa o‘zgardi. Qizim qo‘limdan ishini olgandan buyon fermer xo‘jaligimni yanada rivojlantirib, iqtisodiy samaradorlikka erishyapti. Chunki qishloq xo‘jaligi ishlariga ham ilm asosida yondashilyapti. O‘g‘lim yo‘qligidan o‘ksinmayman. O‘nta o‘g‘ilning

ishini qilyapti qizim. Yaqinda Umra safariga borib keldik. Shinam uy-joy, to‘kin dasturxon — halol mehnatimiz mahsuli.

Gulira’no Xoliqova rahbarlik qilayotgan Farg‘ona viloyatining Rishton tumanidagi “Xoliqov Yo‘lchiboy” fermer xo‘jaligida nafaqat paxta va g‘allachilik, balki chorvachilik, asalarichilik, dala chetlarida bog‘dorchilik yo‘nalishlarini tashkil etish borasida ham ish olib borilmoqda. Joriy yilning o‘zida asalarichilik, baliqchilik yo‘nalishlarida qo‘shimcha tarmoqlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Istiqbolli loyihalar dasturiga ko‘ra, dala chetidagi yerlarni foydalanishga kiritish orqali, bir gektar yerda uzum yetishtirishga taraddud ko‘rilyapti.

— U mahallamizdagi faol va fidoyi, qo‘li ochiq, saxovatli yosh fermer sifatida ham ko‘pning koriga yarayapti, — deydi “Qayrag‘och” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Valijon Mahkamov. — Fermer tashabbusi bilan 13 kilometrdan ortiq toza ichimlik suv tarmog‘i tortildi, 2 kilometr ichki arqlar tozalandi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta’minlangan oilalarga yetti tonnadan ortiq bug‘doy berdi, mahallada bo‘layotgan barcha madaniy-ma’rifiy tadbirlar, obodonchilik, ko‘kalamzorlashtirish ishlarida yoshlarga bosh bo‘lib keladi.

Bir so‘z bilan aytganda, cho‘lda dur undirib, bog‘u bo‘ston yaratgan, elga rizqu ro‘z ulashayotgan yoshlar sa‘y-harakati bilan ois va chekka hududlar ham obodlikka yuz tutmoqda, yangi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari bo‘y ko‘rsatib, aholi bandligi ta’minlanmoqda.

**Rasuljon KAMOLOV,**  
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri.**  
Sherzod Qoraboyev olgan surat.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official

# VATANPARVARLIK TARBIYASI qayerda beriladi?

## yoxud milliy ma’naviyatimizni rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni



### NUQTAYI NAZAR

**Shahlo AHROROVA, Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi, falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori**

Eng baland imoratlar ham poydevordan boshlanadi. Xo’sh, vatanparvarlik tarbiyasi-chi? Har bir bola tarbiya asosini, eng avvalo, oiladan, keyin ijtimoiy muhitdan oladi. Lekin barcha oila ham yetarlicha tarbiya berish salohiyatiga egami? Ya’ni bolaning asosiy tarbiyachilari — ota-ona har doim uning yonida bo’la oladimi? Ota oila boqishi — ishlashi kerak. Bugungi ayollar ham tinch o’tirmaydi — ishlaydi, turmush o’rtog’iga ko’maklashadi yoki uyda biror hunar bilan shug’ullanadi. Bunday hollarda bolaga yetarlicha vaqt ajratish imkoni bo’lmaydi, albatta.



savol tug’iladi: ertaga o’g’limiz “Dada, turing, to’rda men o’tiram!” yoki qizimiz “Ona, tanishing, bu kuyovingiz, biz farzand kutayap-

Albatta, ular orasida bir-ikki talaba “Muta-xassisligimiz uchun bu fan kerak emas”, dedi. Bular ko’p dars qoldiradigan, past bahoga o’qiydigan, kasb etiketiga rioya qilmaslik, savolni o’rnidan turmay berishni erkinlik deb biladiganlar edi. Ammo talabalarning 90 foiz-dan ortig’i bu fanlar, albatta, o’qitilishi lozim-ligini e’tirof etdi. Ularning quyidagi fikri diqqat-imni tortdi: “Biz G’arbda qabul qilinayotgan axloqsizliklar demokratiya oqimi ostida bizga ham ko’chib o’tishi mumkinligini hozir tasav-vurimizga sig’dira olmaymiz. Agar milliy tar-biyani yo’qotsak, 40-50 yil o’tib, biz ham bu holni g’arbdagiday xotirjam qabul qilishimiz mumkin”.

Talabalar haq edi. Tarbiyaga oid fanlar natijasini ehtimol bir kun, bir oy yoki bir yilda ko’rmasmiz, lekin bularni siqib chiqaradigan bo’lsak, natijani yigirma yo o’ttiz yillardan so’ng talaba aytgan darajada ko’rishimiz dahshat emasmi?! Umuman olganda, tala-

tiladi. Shuningdek, har bir sinfda mamlakat bayrog’i osilgan bo’ladi. Ko’p hollarda unga sodiqlik qasami qabul qilinadi.

Xitoyda esa vatanparvarlik mafkurasi na-faqat yurti, balki shahri, viloyati, oilasi, shu-ningdek, xitoy tilini sevish va faxrlanish aso-siga qurilgan. Vatanparvarlik tarbiyasi Xitoy pedagogikasining asosiy vazifasi. Bunda ular Vatan tarixi, milliy bayramlar, milliy qadri-yatlarni o’qitish, musiqa darsida Vatan haqi-dagi qo’shiqlarni o’rgatishni asos qilib olgan. Targ’ibot ishlarida ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalaniladi. Anonim izohlar yozish taqiqlan-gan. Davlat va fuqarolar o’rtasida ham, tala-ba va o’qituvchilar o’rtasidagi ijtimoiy aloqalar internet orqali yo’lga qo’yilgan.

Shu o’rinda Yaponiya ta’limiga oid bir fakt yodimga tushadi. Yapon ta’lim tizimida birinchidan to oltinchi sinfga qadar “axloq tomon yo’l” dasturi asosida dars o’tilarkan. Bu darslarda yapon bolalari faqat axloq, etiket qoidalari, odamlar bilan muomalani o’rganadi. Janubiy Koreyada ham shunday: tarbiyaviy darslar bilan birga musiqa, tasviriy san’at mashg’ulotlari o’qitiladi. Bu — qalb tar-biyasi degani. Ularning jamiyatida ustozning ulug’lanishi alohida e’tiborga molik. Ehtimol, shuning uchun ularlarda tartib-intizom qadriyat darajasiga ko’tarilgandir?!

Bugungi globallashuv va integratsiya kuchayib borayotgan davrda ma’naviy hayo-timizdagi o’zgarishlar bilan bog’liq xususiyat-larga alohida ahamiyat qaratishimiz zarur. Chunki globallashuv bilan bog’liq axborot xurujlari, turli g’oyaviy-mafkuraviy tahdid-lar aynan milliy o’zlik va milliy ma’naviyatga chang soladi. Yoshlar hayotiga begona ta’sirlarning adabiyot, san’at, ijtimoiy tarmoq orqali olomon madaniyatining kirib kelayot-gani bugun global muammodir.

Aslini olganda, globallashuvni ijobiy hodisa, deb baholash mumkin. Shuningdek, insoniyat va jamiyatlar taraqqiy etarkan, glo-ballashish hodisasi muqarrar va tabiiy jara-yon. Ammo har qanday taraqqiyot dialektik tarzda amalga oshadi. Uning bir maromda ko’ringan dinamik rivojlanishida o’ziga xos qarama-qarshiliklar, ichki ziddiyatlar namo-ynon bo’ladi. Xususan, umumbashariy qad-riyatlarining shakllanishi va takomillashuvi milliy-ma’naviy qadriyatlarining yemirilishiga olib kelishi mumkin. Biroq milliy-ma’naviy omillar-siz umumbashariy qadriyatlarining yashovchanligi ham kamayadi. Ularni joriy etishda ham o’ziga xos muammolar yuzaga keladi. Bu kabi ziddiyatlar globallashuvning salbiy tomonlari bilan bog’liq masalalarni yu-zaga chiqaradi.

Ana shu salbiy jihatlir sirasida xalqlarning asrlar mobaynida ajdodlardan avlodlarga o’tib kelayotgan milliy urf-odatlar, qadriyat-lari umumbashariy tamoyillar va qadriyatlar birlashuvi ta’siri ostida yo’qolib ketish xavfi ostida qolayotgani kabilarini aytish mumkin. Bunday tahdidlarga qarshi qurollanish faqat ta’limni tarbiya asosida berish orqaligina amalga oshadi.

Jamiyat taraqqiy etishi uchun, birinchidan, ta’lim va tarbiyaning uyg’unligini ta’minlash lozim. Bunda tarbiyaning asosi bo’lmish mil-liy qadriyatlarimizdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, tarbiyaga oid fanlar o’qitilishining o’rta maxsus va oliy ta’limdagi uzviyligini yo’lga qo’yish kerak. Bunda maktabning har bir o’quv yilida dasturga, albatta, tarbiyaga oid fanni kir-tish zarur. Masalan, 1-4-sinflarda “Odobnoma”, keyingi yillarda bir-birini to’ldiruvchi uzviy ket-ma-ketlikda “Vatan tug’usi”, “Ekologik madani-yat”, “Etiket qoidalari”, “Ma’naviyat asoslari”, “Huquqshunoslik”, “Jamiyatshunoslik”, “Ax-loqshunoslik”, “Estetika” kabi fanlarni o’qitish lozim, deb o’ylaymiz.

Uchinchidan, jamiyatda ustoz-muallimlar-ga yuksak ehtiromni shakllantirish choralarini ko’rish tizimli davom etishi kerak. O’qituvchi malakasini oshirish, moddiy sharoitini yax-shilash, rag’batlantirish, huquq va sha’nini himoya qilish masalalari ham bu chora-tad-birlarga kiradi.

To’rtinchidan, ma’naviyat va ma’rifat markazlari hamda ularning bo’limlari faoli-yatini ta’lim tizimi bilan uyg’unlashtirish lozim. Ya’ni ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar bo’yicha rahbar o’rinbosarlari faoliyati markazlarning hududiy bo’limlari bilan birga muvofiqlashtirilishi maqsadga muvofiq.



### XALQARO FESTIVAL

Manbalarda aytilishicha, kashtachilikning ilk paydo bo’lishi teridan tayyorlangan kiyimlarda bog’lam va choklarning yuzaga kelishi bilan bog’liq ekan. Milliy hunarmandchilikning bu turi asrlar davomida rivojlanib, oilalarda voyaga yetayotgan har bir qiz onasi, momosidan bu hunarni o’rganishi odat tusini olgan edi.

## BARMOQLARDA YARALAYOTGAN MO’JIZA

Biroq kashtachilik bilan bog’liq bu kabi yumushlarni turli texnika yor-damida bajarish amaliyoti kirib keli-shi qo’l mehnati orqali bajariladigan ayrim hunarlar qisman unutilishiga sabab bo’lmoqda. Lekin kuni kecha ko’hna Keshda tashkil etilgan xalqaro kashtachilik bayramida qadimiy hu-narmandchilik qayta jilolandi, desak adashmaymiz.

“Hunarmand” uyushmasi ham-da Qashqadaryo viloyati hokimligi tashabbusi bilan Shahrisabz shahri markazida Prezidentimizning “Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hu-narmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Xalqaro iroqi kashtachilik festivali o’tkazildi.

Tadbirda Qoraqalpog’iston Res-publikasi, Toshkent shahri hamda mamlakatimizning barcha vilo-yatlaridan va qo’shni Afg’oniston, Qirg’iziston, Qozog’istondan kelgan kashtado’z hunarmandlar o’z mahsu-lotlari bilan ishtirok etdi.


Mazkur xalqaro tadbir xalqimizning qadimiy tarixi va madaniy hayotini har tomonlama keng yoritish, ko’p qirrali o’zbek milliy hunarmandchiligining iroqi kashtachiligini keng namoyish qi-lish, uning noyob namunalarini targ’ib etish, ushbu yo’nalishda turli xalqlar o’rtasida tajriba almashish, do’slik va hamkorlik aloqalarini yanada rivojlan-tirish, hunarmandchilik an’analari va maktablarini saqlash hamda qayta tiklash maqsadida tashkil etildi.

— Mazkur festivalda ilk bor ishtirok etyapman, — deydi qirg’izistonlik Begoyim Japarova. — Bizda ham qadimdan kashtachilik yaxshi rivoj-langan. Har bir oilada qiz tug’ilsa, onalarimiz qizining sepiga kashta tikkan. Uni tikish jarayonida chiroyli gullar nusxasi tushirilishi bilan yo’ qismiga turli xalq maqollarini, hikmatli so’zlarni ham aynan kashta ipi bilan tikib qoldirilgan. Bugungi tadbirda ba’zi namunalaridan olib keldik.

Festival biz uchun ajoyib o’tidi. Bir qator do’slar yotindin. O’zbek kashtachiligi bilan yaqindan tanishib, usta-hunarmandlar bilan hamkorlik qilishga kelishib oldik. Shu jarayonda Sohibqironga beshik bo’lgan go’zal Shahrisabzni ham ziyorat qildik. Men-ga mamlakatingiz juda yoqdi. Kelgusi safar jamoamiz bilan birga alohida tomosha qilish uchun kelishni niyat qildik.

Ha, xalqning hayoti va urf-odatlari bilan chambarchas bog’liq bo’lgan bu san’at turi qo’lgul chevarlar tomonidan asrlar osha yanada sayqallanib bo-raveradi. Eng muhimi, amaliy-bezak san’atimizning qadimiy turi zamonaviy kashtachilik orqali uyg’unlashtirilgan holda o’z o’rnini, ahamiyatini saqlab qoladi.

**Akbar RAHMONOV, “Yangi O’zbekiston” muxbiri**



miz!” desa ham ularning gapini erkinlik, deb qabul qilamizmi?!

Erkinlik, demokratiya nima o’zi? Xohla-gan gapini gapirib, xohlagan ishini qilish deganimi? Afsuski, ko’p yoshlarda mana

balarga demokratik madaniyatni, demokrati-yani eksport qilib bo’lmisligini, demokratik tamoyillar milliy qadriyatlarsiz amal qilishi milliy o’zlikni yemirishga olib kelishini qaysi fanlar o’rgatadi? Albatta, ijtimoiy fanlar.



shunday tushuncha shakllanib boryapti. Shu bois, ular o’rnidan turmay, stulda o’tirgancha ustoziga savol beryapti. O’smir yoshdagi qizlar o’qituvchi doskaga o’g’irliganda tap tortmay derazadan sakrab chiqib ketyapti. Buni olqishlaganday bo’lgan o’quvchilar o’qituvchi ustidan kulyapti. Biz-chi, biz nima qilyapmiz? O’qituvchining bu qizga tanbehini muhokama qilamiz, uni ota-onalar oldida uzr so’ratamiz, tarbiya bilan shug’ullanadigan ijtimoiy-gumanitar fanlarni qisqartirish-ga ko’maklashamiz. Bunga shu fanlar o’qituvchilarining ayrimlari ta’magirligini sa-bab qilib ko’rsatamiz. Bu burgaga achchiq qilib ko’rpa yoqish emasmi?!

“Axloq falsafasi” darsini o’tishga kir-gan dastlabki kunim talabalarga savol berdim: “Nima deb o’ylaysiz, nomutaxas-sis yo’nalishdagi talabalar uchun ijtimoiy-gumanitar fanlar kerakmi?” Ularning ak-sariyati kerak emas, deb javob berdi. Ular uchun qo’shimcha fan — qo’shimcha imtihon, qo’shimcha oraliq va yakuniy nazorat, degani. Fanni o’lib bo’lgandan so’ng talabalar o’rtasida kichik debat o’tkazdim. O’rtaga tashlangan savol quyidagicha edi: “Nima deb o’ylaysiz, nomutaxassis yo’nalishidagi talabalar uchun ijtimoiy-gumanitar fanlar kerak ekanmi?”

Biz ko’pincha “olomon madaniyati G’arbdan kirib keldi”, der ekanmiz, go’yo bu “madaniyat” G’arbda azaldan hukm surib kel-ganday qaraymiz. Yaqinda ingliz adabiyoti-dan Sharlotta Brontening “Jeyn Eyr” asarini va G’arb adabiyotiga oid yana bir qancha asarlarni rus tilidan o’zbek tiliga o’g’irdim. Har bir davr adabiyoti o’sha paytdagi ijtimoiy muhit, axloqiy-tarbiyaviy qadriyatlar, milliy xu-susiyatlarni ham aks ettiradi. Mana shu asar-larda ifodalangan ikki-uch asr oldingi G’arb hayotida bugungi “ommaviy madaniyat” un-surlarini ko’rmadim. Ularda mustahkam oila qadriyatlari, yuksak darajadagi etiket qoi-dalari aks etgandi. Bundan xulosaga kelish mumkinki, G’arb yoshlarining bugungi “erkin” qiyofasi azaldan kelmayapti. U aynan tarbiya ta’limdan uzib qo’yilgani tufayli shakllangan.

Biroq har qanday rivojlangan, demokratik tamoyillar ustuvor davlat ham vatanparvarlik tug’ularni shakllantirishda ta’lim tizimidan foydalanishining guvohi bo’lamiz. Masalan, hatto AQSHda ham vatanparvarlik g’oyalari ta’lim tizimida singdirilishi mustahkamlab qo’yilgan. Aytaylik, mashg’ulotlardan oldin davlat madhiyasini ijro etishda biror o’quvchi o’rnidan turmasa yoki qo’lini ko’ksiga qo’ymasa, o’sha kuniyoq o’qishdan chetla-

“Yangi O’zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DUK

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

**MUASSIS:**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Vazirlar Mahkamasi**

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.  
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-846.

**Hajmi** — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Topshirildi — 02:50

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05